

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA**

**SUKUT DISKURSNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA  
(BADIY ASARLAR ASOSIDA)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Filologiya fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological sciences**

**Yuldasheva Dilorom Nigmatovna**

Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida) .....3

**Юлдашева Дилором Нигматовна**

Молчание как неотъемлемая часть дискурса (на основе художественных произведений)..... 33

**Yuldasheva Dilorom Nigmatovna**

Silence as an integral part of discourse (based on artistic works) .....65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA**

**SUKUT DISKURSNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA  
(BADIY ASARLAR ASOSIDA)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2019.4DSc/Fil191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb sahifasining ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi**

**Abuzalova Mehriniso Kadirovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Jo'rayeva Bibish Muxsinovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Pardayev Azamat Baxronovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Raupova Laylo Raximovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi ilmiy tashkilot**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "16" may soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (440 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "2" may da tarqatildi.

(2024-yil "2" - may da 11 -raqamli reyestr bayonnomasi)



**Y.S.Saidov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi  
v.b., filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**A.R.Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**A.A.Haydarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b., filologiya  
fanlari nomzodi, professor

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tafakkurning tilda aks etishi va ularning nutqiy voqelanishi insoniyat sivilizatsiyasini taraqqiyotga chorlovchi omillardan ekanligi allaqachon o'z isbotini topmoqda. Pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar doirasida o'rganiluvchi diskurs va uning birliklari, jumladan, sukut mavzusida tadqiqotlarning yuzaga kelishi nutq masalalarining o'ziga xos jihatlarini yanada teranroq anglashga xizmat qilmoqda. Xususan, turli xalq vakillarining o'zaro ijtimoiy, siyosiy diplomatik, gumanitar, iqtisodiy, madaniy almashinuv, turizm kabi bugungi kunda ko'plab davlatlarning rivojiga turtki bo'layotgan aloqalarda har bir xalqqa xos nutqiy muloqot birliklarini o'rganish, diskursda foydalaniladigan muloqot aktlaridan sukutning o'ziga xos o'xshash va farqini ifodalagan ma'nolariga ko'ra lingvopragmatik aspektda tadqiq qilish muhim.

Dunyo tilshunosligida muloqotda madaniy va kognitiv hodisalarni uyg'unlikda o'rganish, har bir millatning til va madaniyati tamoyillari muayyan standartlardagi qolipga emas, balki o'ziga xos, individual qonun-qoidalarga bo'ysunishini ilmiy va amaliy jihatdan mushohada qilish maqsadida o'tgan asr boshlaridan o'zaro o'xshash bo'lgan hodisalar sirasini ajratish, axborot qiymati, lisoniy tizimdagi mavqeyi, vazifasi bir xil bo'lgan hodisalarni sof lisoniy nuqtayi nazardan bir-biriga teng sifatida ayni bir paradigmaga yoki siraga birlashtirish bilan shug'ullanish konsepsiyalari fanga kirib keldi. Zero, diskursning madaniy holatini aks ettiruvchi tarkibiy birliklar, jumladan, sukutni muayyan til misolida o'rganish pragmalingvistikaning muhim masalalaridan sanaladi.

Mamlakatimizda globalizm fenomeni bilan bog'liq omillar davlat tili masalasiga jiddiy yondashuvni kun tartibiga qo'ydi. Zero, "bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"<sup>1</sup>. Tilshunoslikda til tizimida bir hodisa ifodasi uchun bir necha birlik mavjudligi, tabiiyki, bu birliklar qaysidir jihati bilan bir-biridan farqlanishi ma'lum. Diskursning tarkibiy qismi sifatida baholanishi zarur bo'lgan sukut, ohang kabi hodisalar hozirgacha maxsus monografik tadqiq obyekti bo'lmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" gi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 22-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasi// Xalq so'zi, 2020-yil 23-dekabr. – № 258 (6952).

qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Lingvokognitologiyada tilning noverbal vositalari, noverbal vositalarning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, London University, Oxford University, (Angliya), Northern Arizona University, California State University, Princeton University, Columbia University, California University, Indiana University (Amerika), Göttingen Universität, Berlin Universität, Humboldt Universität, Goethe Universität (Germaniya), Tokio University (Yaponiya), the University of Sorbonne (Fransiya), Universitat de Valencia (Ispaniya), University of Zurich (Shveysariya), Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Vitebsk davlat universiteti, (Belarus); Xarkov davlat pedagogika universiteti (Ukraina), Baki Dövlət universiteti (Ozarbayjon), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti(O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida og‘zaki nutq jarayonida noverbal vositalardan foydalanish ehtiyojining yuzaga kelishi, bu ekstralingvistik faktorlar bilan bog‘liqligi, pragmatik maqsadni yuzaga chiqarishda verbal va noverbal vositalarning oppozitivligi yoki o‘zaro hamkorligi, sukutning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiy usullarni yuzaga keltirishdagi ishtiroki, sukutning diskursda amal qilish darajasi, badiiy-estetik, konseptual xarakteri tadqiqiga oid olib borilgan tadqiqotlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan:

Sukut universal hodisa va diskurs jarayonining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi, suhbatdoshlar orasida muloqotni ta‘minlashda istalgan verbal birlikni almashtira oluvchi natija ekanligi asoslangan, sukut hodisasi falsafiy jihatdan o‘rganilgan (Cambridge University (Angliya); University of Zurich (Shveysariya); nutqiy muloqot jarayonida sukut hamda sukut ifodalaydigan ma‘nolar va ularning

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi [www.google.scholar.com](http://www.google.scholar.com), [www.lingvolive.com/ru](http://www.lingvolive.com/ru), [www.dictionary.com](http://www.dictionary.com), [www.merriam-webster.com](http://www.merriam-webster.com), <http://elibrary.udsu.ru>, [www.dissercat.com](http://www.dissercat.com), <https://cheloveknauka.com>, [core.ac.uk](http://core.ac.uk), [www.prlib.ru](http://www.prlib.ru), [www.science.org](http://www.science.org), [www.healthline.com](http://www.healthline.com), [www.sciencedaily.com](http://www.sciencedaily.com), [www.pnas.org](http://www.pnas.org), [www.scientificamerican.com](http://www.scientificamerican.com), [www.languageguide.org](http://www.languageguide.org), [www.urbandictionary.com](http://www.urbandictionary.com) va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

pragmatik, badiiy-estetik xususiyatlari o'rganilgan (University of Pennsylvania, University of California (AQSH); Boston University, New York University (AQSH); Universitat de Valencia (Ispaniya); nutqiy muloqotda sukut har doim til muntazamligi darajasida, sukut orqali fikr ifodalashning o'ziga xos yo'llari mavjudligi yoritib berilgan (Seoul National University (Koreya); Sophia University (Yaponiya); inson ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashiga ko'ra sukutning nutq tizimida dinamikligi va moslashuvchanligi, nutqiy muloqot jarayonida nutq birliklari o'rnida sukutdan foydalanishning psixofiziologik xususiyatlari, lingvomadaniy, kognitiv jihatlari asoslab berilgan (University of Tokyo (Yaponiya), Australian National University (Avstraliya), Oxford University Language Centre (Angliya); nutqiy hodisalar, semantik taraqqiyot sukut hodisasi bilan ham aloqadorligi, matnning ijobiy xususiyati sifatida axborot nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi munosabati bilan tegishlicha ko'zga tashlanishining nazariy va amaliy masalalari asoslab berilgan (Ural davlat pedagogika universiteti, Volgograd ijtimoiy pedagogika universiteti, Vitebskiy davlat universiteti, Belarus; Moskva davlat universiteti, Lingvistik tadqiqotlar instituti, RF); sukut asosida yuzaga keluvchi troplar, sintaktik figuralar tahlil qilingan (Xarkov davlat pedagogika universiteti, Ukraina; Baki davlat universiteti, Ozarbayjon; Qozoq milliy universiteti, Qozog'iston); sukutning adabiy tilga va nutqqa munosabati, sukutning nutqiy muloqotdagi o'rnini, pragmatik, stilistik, qisman lingvopoetik xususiyatlari tadqiq qilingan, sukut hodisasining gapda semantik-sintaktik nomuvofiqlikni yuzaga keltirishi kabi masalalar o'rganilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti).

Jahon tilshunosligida sukut hodisasining yuzaga kelish omillari bo'yicha bir qator, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: nutqiy muloqotda sukutni yuzaga keltiruvchi faktorlarni aniqlash; muayyan ijodkor asarlari asosida sukutning pragmatik va lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish; sukut asosida yuzaga keluvchi nutqiy hodisalarda shakl va ma'no munosabatini tadqiq etish; diskursning barcha ko'rinishlarida yuzaga keluvchi sukut hodisasining xususiyatlari va badiiy-estetik vazifalarini o'rganish kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon fanida sukut hodisasi bilan qiziqish, avvalo, faylasuflar e'tiborini tortgan. Bu borada misrlik faylasuf Plotin, konstantinopollik dindor, faylasuf Grigoriy Palama, rus dindori, faylasuf Serafim Sarovski, fransuz faylasufi Mishel Fuko, fransuz psixanalitigi Jak Lakan, fransuz faylasufi Jak Derrida, rus faylasufi Mixail Baxtin<sup>3</sup> kabilarning ishlari e'tiborga loyiq.

---

<sup>3</sup> Плотин. Эннеады. Т. 2. – Киев: УЦИММ-Пресс: ИСА, 1996. – 236 с.; Плотин. Эннеады. Т. 1. – Киев: УЦИММ-Пресс, 1995. – 394 с.; Палама Г. Сто пятьдесят глав. – Москва, 2006. – 224 с.; Саровский С. Как жить? Мудрые советы опытности. – Москва: Благовест, 1998. – 224 с.; Фуко М. Слова и вещи. Археология гуманитарных наук / Перевод Н. Автономовой и В. Визгина. – Москва: Прогресс, 1977. – 247 с.; Лакан Ж. Функция и поле речи и языка в психоанализе. – Москва: Гнозис, 1995. – 294 с.; Деррида Ж. Поля философии / пер. с фр. Д.Ю. Кралечкина. – Москва: Академ. Проект, 2012. – 376 с.; Бактин М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. – Москва: Художест. литература, 1975. – С.250-296. va b.

Nutqiy muloqotda sukut hodisasining o'rganilishi XX asrning ikkinchi yarmida antroposentrik paradigmalar nazariyasining rivojlanishi fonida nutqiy aktlarni ajratish bilan bevosita bog'liq. Til tizimi va me'yorlari orqali nutqni uning real shartlilikida yaratishning yagona usuli sifatida shaxs nutqiga e'tibor jihatidan V.Vinogradov, L.V.Sherba, N.D.Artyunova, L.P.Krisin, V.G.Gak, L.P.Rijova, G.P.Grays, J.R.Serl, V.V.Bogdanov, D.Frank, T.G.Vinokur tadqiqotlarida sukut hodisasiga qisman; A.K.Bogdanov, S.V.Krestenskiy, O.Y.Nosova, T.R.Kopilova<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida mazkur hodisaga bevosita e'tibor qaratildi.

O'zbek tilshunosligida diskurs jarayonida sukut hodisasining ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan monografik ko'lamda o'rganilmagan bo'lsa-da, nutqiy muloqotning noverbal vositalari sirasida A.Nurmonov, Sh.Iskandarova, M.Saidxonov, S.Mo'minov, Sh.Safarov, L.Raupova, G.Toirova, G.Saparbayeva, F.Karimova, M.Kurbanov kabi<sup>5</sup> olimlarning ishlarida yo'l-yo'lakay sukut hodisasiga ham murojaat qilingani kuzatiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2020-2025-

---

<sup>4</sup> Виноградов В. Всегда ли система системна? Система и уровни языка. – Москва: Наука, 1969. – С. 249-259.; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – 428 с.; Артюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – Москва: Наука, 1976. – 383 с.; Артюнова Н.Д. Логический анализ языка. Ментальные действия. – Москва: Наука, 1993. – 176 с.; Крысин Л.П. Речевые общение и социальные роли говорящих // Социально-лингвистическое исследование. – Москва: Наука, 1976. – С.42-52.; Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи // Иностранные языки в школе, № 5. – 1982. – С. 11-17.; Рыжова Л.П. Обращение как компонент коммуникативного акта: Автореф. дисс... докт. филол. наука. – Москва: ИРЯ им.А.С.Пушкина, 1982. – С.24.; Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – Москва: Прогресс, 1985. –С. 217-237.; Серль Дж.Р. Косвенные речевые акты // Новое в зарубежной литературе. – Москва: Прогресс, 1986. –Вып. 17. – С. 151-169.; Богданов В.В. Молчание как нулевой речевой знак и его роль в вербальной коммуникации // Языковое общение и его единицы. – Калинин, 1986. – С.12.; Богданов В.В. Функции вербальных и невербальных компонентов в речевом общении // Языковое общение: единицы и регулятивы. – Калинин, 1987. – С.18-25.; Франк Д. Семь грехов прагматики: тезисы о теории речевых актов, анализе речевого общения, лингвистике и риторике (В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII Теория речевых актов). – Москва: Прогресс, 1989. – С.363-373.; Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий. Варианты речевого поведения. – Москва, 1993. – С.11.; Богданов К.А. Очерки по антропологии молчания. Номо Тасенс. – СПб.: Рус. христиан, гуман. ин-т, 1998. – 352 с.; Крестинский С.В. Коммуникативно-значимое молчание в структуре языкового общения: Автореф. дисс... канд. филол. наука. – Тверь, 1990. – 26 с.; Носова О. Е. Лингвокультурологический анализ стратегических и тактических ресурсов молчания в структуре коммуникации (на материале современного английского языка): Автореф. дисс. канд.филол. наук. – Уфа, 2010. – 14 с.; Копылова Т. Р. Молчание как лингвокогнитивная категория: Автореф. дисс... докт. филол. наука. – Ижевск, 2022. – 36 с.

<sup>5</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 24 б.; Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдли. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – 301 б.; Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдли. II жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – 328 б.; Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдли. III жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – 318 б.; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ олатининг мулоқот шакллари. НДА. – Самарканд, 1993. – 26 б.; Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. НДА. – Т., 1993. – 26 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-дисоний хусусиятлари. Филол. фан. док... дисс. – Т., 2000. – 235 б.; Мўмин Сиддиқ. Сўзлашиш санъати. – Фарғона: Фарғона, 1997. – 100 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: ЎЗМЭ, 2008. – 285 б.; Раупова Л.Р. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. док... дисс. – Т., 2012. – 53 б.; Toirova G. O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik: Filol.fan. bo'yicha falsafa dok... (PhD) diss. – T., 2017. – 157 b.; Сапарбаева Г. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док...(PhD) дисс. – Урганч, 2020. – 139 б.; Каримова Ф.С. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док... (PhD) дисс. автореф. – Т., 2021. – 57 б.; Курбанов М.А. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док... (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – 192 б.



yy.) mo'ljallangan "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sukut diskursning tarkibiy qismi ekanligini badiiy asarlardan olingan misollar asosida lingvomadaniy va lingvoma'naviy aspektda asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jahon va o'zbek tilshunosligida sukut diskursning tarkibiy qismi ekanligiga doir ishlarni tavsiflash va tasniflash;

sukut tushunchasiga kognitiv-pragmatik va psixolingivistik nuqtayi nazardan munosabat bildirish;

falsafiy, lingvistik va diniy yondashuvlarda jimlikning o'rganilishi masalasiga munosabat bildirish;

sukut ichki va tashqi nutqning harakat birligi ekanligini milliy badiiy matnlar asosida ifodalash;

nutqiy muloqot turli o'rinlarida adresat va adresantning sukut saqlashi ifodalagan ma'nolarni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan talqin qilish;

sukutning eksplitsit hamda implitsit ko'rinishlarini baholash va sukutning lingvoma'naviy birlik ekanligiga munosabat bildirishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** o'zbek milliy diskursida sukutdan foydalanish jaryoni tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** diskursning tarkibiy qismi bo'lgan sukutning antroposentrik xususiyatlari, o'ziga xosligi, sukut ifodalagan ma'nolarni milliy badiiy matnlar asosida tadqiq qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, funksional-semantik, kontekstual hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nutqiy muloqot jarayonidagi sukut tushunchasi zamon va makon, shart-sharoit, maqsad/sabab va oqibat bilan uzviy bog'langan o'ta qisqa bir zamonda sodir bo'ladigan pragmatik vosita ekanligi noverbal: nolisoniy birliklar – imo-ishoralar, mimikalar, suhbatdoshning maneralari, simvollar, ohang, sukut orqali ifodalangan munosabat, verbal: lisoniy birliklar – fonema, morfema, qolip – asosida shakllangan badiiy matnlar asosida ochib berilgan;

diskursning tarkibiy qismi bo'lgan sukut nafaqat jonli muloqotning, balki shaxsning ruhiy, individual, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy va gender xususiyatlarini o'zida aks ettira oladigan nutq komponenti ekanligi asoslangan;

badiiy asarlarda ifodalangan nutqiy muloqot jarayonida xotin-qizlar sukut saqlashining 14 ta holati: hurmat-e'tibor; andisha, hayo-ibo; o'pkalanish; o'zbek onalariga xos mehr-muhabbat; erki bo'g'ilgan ayol; havasni yuzaga chiqarish vositasi; itoatkorlik, sir saqlash // erkak kishi bilan suhbat jarayoni 11 ta holat qo'rquv, itoat, suhbatdoshning rizoligi, biror ishga xayrixohligi, behalovatlik, pushaymonlik, ilojsizlik, savolga javob topolmaslik kabi semantik guruhlari aniqlangan;

o'zbek milliy madaniyatida sukutning 9 ta sababi: dunyodan ham avval yaralgan ibtido, odob-axloq me'yori, abadiyat ramzi, alomati rizo, insonning ziynati sifatida hamda muloqot jarayonida sukutni yuzaga keltiruvchi omillar –

ruhiy holat doirasida 40 % ni, odob-axloq doirasida 33 % ni, ijtimoiy holat doirasida 10 % ni va tabiiy holat doirasida esa 5 % ni tashkil etishi badiiy asarlar asosida isbotlangan;

adresat va adresantning sukut saqlashi diskurs jarayonida xalq tarixi, madaniyati, tafakkuri, ruhiyati hamda ijtimoiy munosabatlarini yorituvchi lingvomadaniyatshunoslikka oid asosiy muloqot vositasi ularning dunuoqarashi, e'tiqodi hamda tafakkuri bilan bog'liqligi, eksplisit hamda implisit ko'rinishlari, nutqiy muloqot jarayoni shakllanishida shaxs omilining muhim o'ringa egaligi, olam manzarasining asosiy tasvir vositalaridan ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Lingvokognitologiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plangan material va xulosalar o'zbek tilshunosligi, xususan, lingvomadaniyat va leksikografiya masalalarini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

diskursning tarkibiy qismi bo'lgan sukut milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi, urf-odatlar, xalqimizga xos axloqiy fazilatlar bilan aloqador bo'lgan nutqiy muloqot bo'lagi ekanligi hamda sukutning semantik xususiyatlari ona tilimizdan amaliy foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishi asoslangan;

“Hozirgi o'zbek adabiy tili”, “O'zbek lingvokognitologiyasi”, “O'zbek tilshunosligi tarixi”, “Nutq madaniyati asoslari” fanlari bo'yicha yaratilgan, yaratilajak darslik va qo'llanmalar, hozirgi o'quv hamda ilmiy adabiyotlarning mukammallashuviga asos bo'lishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, birlamchi ilmiy-uslubiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, funksional-semantik, kontekstual hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilshunosligi nazariyasining mukammallashuvi, o'zbek tili leksikologiyasi, terminologiyasi, o'zbek tili uslubiyati, o'zbek tili tarixi, o'zbek tilshunosligi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek tilshunosligiga oid fanlarni o'qitish, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi o'zbek adabiy tili”, “O'zbek tili tarixi”, “O'zbek tili uslubiyati”, “Nutq madaniyati asoslari”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “O'zbek tilshunosligi tarixi” fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, ommaviy axborot vositalarida davlat tilini rivojlantirish, til madaniyatini targ'ib etishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

nutqiy muloqot jarayonidagi sukut tushunchasi zamon va makon, shart-sharoit, maqsad/sabab va oqibat bilan uzviy bog'langan o'ta qisqa bir zamonda sodir bo'ladigan pragmatik vosita ekanligi noverbal: nolisoniy birliklar – imo-ishoralar, mimikalar, suhbatdoshning maneralari, simvollar, ohang, sukut orqali ifodalangan munosabat, verbal: lisoniy birliklar – fonema, morfema, qolip –

asosida shakllangan badiiy matnlar asosida F3-2019081663 raqamli “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimediya mahsulotlari to‘plamini (elektron lug‘atlar) yaratish” mavzusidagi fundamental loyihada (2020-2021-yy.) foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2023-yil 22-noyabrdagi 1-04/74-son ma’lumotnomasi). Natijada elektron lug‘atlar yaratishda dissertatsiya xulosalariga tayanilgan;

diskursning tarkibiy qismi bo‘lgan sukut nafaqat jonli muloqotning, balki shaxsning ruhiy, individual, ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy, madaniy va gender xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladigan nutq komponenti ekanligi asoslangan xulosalardan 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti hamda 5112400 – O‘zga tili guruhlarida o‘zbek tili bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-078-raqamli guvohnomasi). Natijada darslikdagi lisonning amaliy voqelanishi bilan bog‘liq mavzular noverbal vositalar asosida takomillashtirilgan;

badiiy asarlarda ifodalangan nutqiy muloqot jarayonida xotin-qizlar sukut saqlashining 14 ta holati: hurmat-e’tibor; andisha, hayo-ibo; o‘pkalanish; o‘zbek onalariga xos mehr-muhabbat; erki bo‘g‘ilgan ayol; havasni yuzaga chiqarish vositasi; itoatkorlik, sir saqlash // erkak kishi bilan suhbat jarayoni 11 ta holat – qo‘rquv, itoat, suhbatdoshning rizoligi, biror ishga xayrixohligi, behalovatlik, pushaymonlik, ilojsizlik, savolga javob topolmaslik kabi semantik guruhlaridan 5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Tilshunoslikka kirish” darsligining “Nutq ko‘rinishlari: og‘zaki va yozma nutq” deb nomlangan qismini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-101-raqamli guvohnomasi). Natijada darslik ma’lumotlari sukut ham nutqiy muloqot jarayonining muhim nolisoniy vositalaridan biri degan talqin bilan boyitilgan;

o‘zbek milliy madaniyatida sukutning 9 ta sababi: dunyodan ham avval yaralgan ibtido, odob-axloq me’yori, abadiyat ramzi, alomati rizo, insonning ziynati sifatida hamda muloqot jarayonida sukutni yuzaga keltiruvchi omillar – ruhiy holat doirasida 40 % ni, odob-axloq doirasidagi 33 % ni, ijtimoiy holat doirasida 10 % ni va tabiiy holat doirasida esa 5 % ni tashkil etishi badiiy asarlar asosida shakllangan matnlardan 5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” darsligining “Ona tili ta’limida zamonaviy yondashuvlar” deb nomlangan qismini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-091-raqamli guvohnomasi). Natijada o‘quvchida shakllantiriladigan diskursiv, kompensator kompetensiyalar talqiniga oid ma’lumotlar nazariy va amaliy jihatdan boyitilgan;

adresat va adresantning sukut saqlashi diskurs jarayonida xalq tarixi, madaniyati, tafakkuri, ruhiyati hamda ijtimoiy munosabatlarini yorituvchi lingvomadaniyatshunoslikka oid asosiy muloqot vositasi ularning dunuoqarashi, e’tiqodi hamda tafakkuri bilan bog‘liqligi, eksplisit hamda implisit ko‘rinishlari, nutqiy muloqot jarayoni shakllanishida shaxs omilining muhim o‘ringa egaligi olam manzarasining asosiy tasviriga oid xulosalardan 2022-2023-yillarda

O'ZMTRK "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasi"ning 2023-yil 23-noyabrdagi 02-36-895-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 2 ta monografiya, 1 ta ilmiy risola, 4 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola (shu jumladan, 11 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jumallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Umumiy hajmi 267 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sukut suhbat fenomeni sifatida**" deb nomlanadi. Bobning birinchi "*Sukutning o'rganilish aspektlari: falsafiy, diniy va lingvistik yondashuvlar*" bo'limida muloqot ko'p hollarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va nolisoniy, so'zsiz – noverbal vosita(imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvol, ohang, sukut va h.)lar orqali axborot berish bilan bog'liq bo'lib, o'zaro ta'siriga ko'ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasniflanishi masalalari o'rganildi. Sukut hodisasiga falsafiy, diniy va lingvistik yondashuvlar bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar izohlanib, nazariy bilimlar umumlashtirildi. Sukut so'zi arab tilidan tilimizga kirgan, sukun, sukunat va o'zbek tilidagi sukunatli yasama so'zi bilan asosdosh bo'lib, u nutqiy muloqot jarayonida o'ziga xos pragmatik qiymatga ega lingvomadaniy va lingvomilliy xususiyatlarni ifoda etadi.

Falsafada yunon faylasufi Aristotel birinchilardan bo'lib sukut hodisasini mazmun ifodalaydigan hamda mazmun ifodalamaydigan jimlik sifatida ikki turga bo'ladi. Tevarak-atrofdagi sokinlik, tabiatdagi sukunat, kishilarning nutqiy jarayon(kommunikatsiya)dan tashqaridagi jimligini mazmun ifodalamaydigan sukut turga kiritadi va faqat kishilarning nutqiy muloqot jarayonidagi jimligigina (agar u qandaydir maqsadni ko'zlagan bo'lsa yoki muayyan fikrni ifodalashga qaratilgan bo'lsa) mazmun ifodalaydigan sukut ekanligini e'tirof etadi. Sukut – moddiylikka ega bo'lmagan tabiiy hodisa. Sukutning semiotik belgisi yo'q, u tabiiy hodisa sifatida hech qanday mazmuni yetkazishga qodir emas. Sukut qachonki inson ruhiyatiga ko'chgach, u turli ma'nolarni yuzaga chiqarish vositasiga aylanadi. Aristotelning mazkur tezisi keyinchalik falsafada, tilshunoslik hamda psixologiya sohalarida sukut borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar uchun

metodologiya vazifasini bajardi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. M.M.Baxtin Aristotelning bu boradagi fikrlarini boyitadi<sup>6</sup>. M.K.Mamardashvilining sukut hodisasi bilan bog'liq tafakkur va nutq, nutq va yozuv o'rtasida ikkita chegara mavjudligi haqidagi mulohazalari e'tiborga loyiq.

M.K.Mamardashvili sukut va nutqning tengligiga ishora qiladi – fikr ifodalashda sukut nutq bilan teng, demak, jim turishning xususiyatlari o'rganilishi zarur. Garchi M.K.Mamardashvilining nutqiy muloqotda sukutning ishlatilishi bilan bog'liq fikrlari takror bo'lsa-da, sukut va nutqning tengligi xususidagi mulohazalari fan uchun yangilik edi. Rus faylasufi K.A.Bogdanov (1963) "Sukut antropologiyasidan ocherklar" ("Очерки по антропологии молчания") monografiyasida sukut hodisasini falsafiy, diniy, etnografik, psixologik va sotsiologik jihatdan tahlilga tortadi va o'zining sukut bilan bog'liq konsepsiyasini yaratadi.

Nemis faylasufi M.Xaydegger "Tilga yo'l" ("Путь к языку") monografiyasining "Til" ("Язык") qismida sukut hodisasi xususida batafsil to'xtalib o'tadi va "sukut haqiqiy kommunikatsiya" ekanligini ta'kidlaydi. Avstriyalik faylasuf va mantiqchi Lyudvig Vitgenshteyn 1994-yili "jimlik tezisi" ni ishlab chishda Xaydegger g'oyalariga tayanadi. Sukut va so'zlashning dialektik bog'liqligini ko'rsatib bergan Uvilyam Shmits sukutni tilning tarkibiy qismi ekanligini yozadi. Lingvistik belgilar biror narsaga ishora qiladi, yetishmayotgan narsani almashtiradi, lekin belgilarning o'zini ham almashtirish mumkin. Shunday sharoitda sukut yetishmayotgan belgilar belgisiga aylanadi. Sukut nutqiy jarayonni buzmaydi, agar nutqda hamma narsani ovoz chiqarib aytish (yoki yozish) mumkin emasligini inobatga olsak, sukut nutqni mukammallashtirishi ko'rinadi.

Sharq falsafiy adabiyotida muloqot jarayoni, muloqot jarayonida sukutning o'rni, sukut nutqiy muloqot ishtirokchisining o'zligi, saviyasi, madaniyati, bilimi va hatto dini, mafkura va ijtimoiy mansubligini namoyon qila olishi haqida Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Abu Abdullo Rudakiy, ibn Rushd, ibn Arabiy, Abdurauf Fitrat kabi yuzlab adiblar qimmatli mulohazalarni bayon qilishgan.

Islom dinida sukut hodisasi alohida e'tibor qaratilgan. Musulmonlarning mo'minligi, oqilligi belgilaridan biri sukut bo'lib, buning asl ildizlari Qur'oni Karimga va hadislariga borib taqaladi. Qur'oni Karimda alloh taolo bandalarini ko'proq sukut saqlashga buyuradi, ortiqcha so'zlash orqali iqob(jazo)ga loyiq bo'lib qolishdan ogohlantiradi. Qur'oni Karimdagi "Qof surasi" 18-oyat, "Isro surasi" 53-oyat, "Baqara surasi" 263-oyat, "Furqon surasi" 13-, 72-oyatlar, "Ahzob surasi" 70-71-oyatlar, "Mo'minun surasi" 1-3-oyatlar kabi o'ndan ortiq oyatlarning sukut bilan bog'liqligi ham shundan kelib chiqadi. Tabiiyki, mazkur oyatlar bilan bog'liq yuzlab hadislar ham keltirilgan.

Xristian dinida sukut hodisasi quyidagilar bilan bog'lanadi: 1) ilohiy yaratilishning boshida so'zdan oldin jimlik bor edi. Demak, sukut – dunyoning boshlanishi ramzi; 2) pravoslav an'analarida sukut – "xudoning sirlarini inson tilida aytib bo'lmaslik" tushunchasi bilan aloqador; 3) sukut – qurbonlik, kamsitish

<sup>6</sup> Бахтин М.М. Проблема речевых жанров //Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986.– С. 221.

tushunchalari bilan bogʻliq motiv. Masalan, rus manbalarida Iso Masihning sukuti ixtiyoriy kamsitish, «har qanday, hatto sof ogʻzaki, zarba berishdan bosh tortish» deb izohlanadi<sup>7</sup>; 4) sukut saqlash monastir hayotida yaratganga tavba qilish holati deb hisoblanadi. Bunda rohib tashqi jihatdan dunyoga sukut va karlik holatida, botinida esa xudoga tavba qilib, gunohlari uchun uzr soʻrayotgan boʻladiki, bu ibodat bilan yolgʻizlikka olib keladigan eng qisqa yoʻl hisoblanadi. Shuning uchun rohib hayotining tuzilishini tartibga soluvchi monastir qoidalarida rohiblarga, koʻpincha, jim turish buyuriladi.

Sukut saqlash bilan bogʻliq qarashlar nafaqat islom va xristianlik orasida, balki daosizm, buddizm, yoga, jaynizm, krishnaizm kabi turli diniy-falsafiy taʼlimotlarda ham uchraydi va ularda mushtaraklik seziladi.

Jahon tilshunosligida sukut hodisasiga nutqiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida qarash amaliy tilshunoslik – lingvopersonologiyaning shakllanishi va rivojlanishi bilan bogʻliq. Maʼlumki, lingvopersonologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida XIX asrning 20-yillarida Gʻarbiy Yevropa hamda Rossiyada shakllandi va rivojlandi. Mazkur masala gʻarb va rus olimlari V. fon Gumboldt, B. de Kurtene, G. Shteyntal, V. Vundt, A.A. Potebnya, G. Ostgof, K. Brugman, G.Paul, D.E.Rozental, M.A.Telenkova, A.V.Puzirev kabi qator olimlarning ishlarida qisman oʻrganilgan.

Jahon tilshunosligida nutqning noverbal vositalari tasnifi boʻyicha dastlabki ilmiy mulohazalar G.V.Kolshanskiy tadqiqotida kuzatiladi. Olimning fikricha, nutqning noverbal vositalari (paralingvistik vositalar) soʻzlovchining verbal (nutqqa xos) muloqot paytidagi kemptik tomonlarni toʻldiruvchi kommunikativ podsistemadir. G.V. Kolshanskiy nutqiy muloqotda paralingvistik vositalar ikki xil vazifa bajarishini taʼkidlaydi: 1) muloqot paytida ular nutqni meʼyorga soladi, yaʼni nutqni toʻldirish maqsadida ishlatiladi; 2) noverbal vositalar til birliklari oʻrnida ishlatilib, ularni kompensatsiya qiladi. G.V. Kolshanskiy sukut hodisasini til birliklari oʻrnida ishlatilib ularni kompensatsiya qiluvchi birlik sifatida sanab oʻtadi. G.Lassvell, K.Shennon, U.Uiverlar nutqiy muloqot jarayonida sukut hodisasiga tinglovchi nuqtayi nazaridan yondashishadi. Rus tilshunosi R.O.Yakobson sukut hodisasiga kommunikantlar (ham soʻzlovchi, ham tinglovchi) nuqtayi nazaridan yondashish modelini birinchilardan boʻlib ishlab chiqadi. Umuman olganda, Yevropa tilshunosligida sukut hodisasining bilvosita hamda bevosita oʻrganilishi XIX asrning 20-yillaridan boshlangan.

Keyinchalik Y.P.Senichkina ishlarida sukut hodisasining uslubiy jihatlari oʻrganildi; G.Y.Kreidlin tadqiqotida milliy va umuminsoniy paralingvistik hodisalar (imo-ishoralar) paytidagi jimlik bilan alohida sukut hodisasi farqlandi (Kreidlin fikricha, nutqiy muloqot jarayonida sukut muayyan paralingvistik vositalarsiz qoʻllanilishi mumkin emas, bunda sukut paralingvistik hodisalarning toʻldiruvchisi sifatida namoyon boʻladi. Shuning uchun paralingvistik vositalar sukut birligi bilan uygʻunlikda oʻrganilishi zarur.); V.B.Kashin “Muloqot nazariyasiga kirish” (“Введение в теорию коммуникации”) nomli oʻquv qoʻllanmasida sukutning monologik, dialogik, guruh hamda ommaviy muloqot

---

<sup>7</sup>Аверинцев С.С. Опасность для ангела юмора // Новый мир, 2000.–№ 1.

turlari tarkibida o'rganilishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi; ichki va tashqi jimlik turlarini sharhlaydi. I.A. Kuznetsov sukut hodisasini paralingvistik vositalar sirasiga kiritadi. O.P.Nosovning "Nutq jarayonida sukutning strategik hamda taktik jihatlarini lingvokulturologik tahlil qilish (zamonaviy ingliz tili materiallari asosida)" nomli nomzodlik ishida jimlik hamda so'zlash hodisalari o'zaro oppozitsiyaga qo'yiladi va ular dialektik kategoriyalar (qarama-qarshiliklar birligi va sabab-oqibat) asosida tahlilga tortiladi.

D.B.Muxametovning "Sukut Chexov prozologik asarlaridagi dialogik parchalarning tarkibiy qismi sifatida" nomli tadqiqot ishida sukut hodisasini amaliy asosda tadqiq etadi. T.R.Kopilova sukut hodisasini lingvokognitiv kategoriya sifatida tahlilga tortadi. Olimaning fikricha, tilshunoslikda Ø (nol) ko'rsatkichli grammatik kategoriyalar tarkibiga sukut ham kiradi. Sukut hodisasining o'rganilishida Tatyana Kopilova qarashlarini ancha mukammal va bu boradagi tadqiqotlar uchun yangi yo'l ochib bera olgan ish sifatida baholash mumkin.

O'zbek tilshunosligida sukut hodisasi maxsus monografik planda o'rganilgan tadqiqotga duch kelmadi. Ammo turli darslik, o'quv qo'llanmalarda, ilmiy tadqiqot ishlarida mazkur masalaga turlicha yondashuvlar mavjudligi kuzatiladi. Jumladan, A.Abdullayev "sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bo'glovchilarning maxsus qo'llanilishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar "fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi"ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Demak, ushbu qo'llanmada stilistik nuqtayi nazardan sukut uslubiy figura sifatida talqin etilgan.

A.Omonturdiyev sukutni noverbal evfemik nutq tarkibiga kiritadi. M.Yo'ldoshev, Q.Yadgarovlar "Badiiy matnning lisoniy tahlili" qo'llanmalarida sukut hodisasini ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilishgan. Pragmalingvist olim Sh.Safarov sukut hodisasi tahlilida Yevropa olimlarining qarashlariga tayanish zarurligini ta'kidlaydi.

"*Sukut – nutqiy aloqa komponenti*" deb nomlangan ushbu bobning ikkinchi bo'limida sukut qachonki nutqiy muloqot jarayoniga ko'chgach turli ma'nolarni yuzaga chiqarish vositasiga aylanishi; sukut nutqiy muloqot jarayonida o'ziga xos pragmatik qiymatga ega lingvomadaniy va lingvomilliy xususiyatlarni ifoda etuvchi vosita hisoblanishi haqidagi ma'lum qarashlar umumlashtiriladi.

Sukut ham ohang, imo-ishoralar kabi doimo nutqning yuzaga kelishiga yordam beruvchi, uning to'laqonli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiluvchi vosita bo'lib kelgan. Tabiiyki, fikr o'zining moddiy asosiga ega bo'lishi kerak. Ana shu moddiy asos – nutq. Nutq fikrning faqat ifodachisigina emas, balki fikrni shakllantiruvchi, uni tartibga soluvchi vosita hamdir. Har qanday fikr ma'lum bir til asosida shakllanadi. Poliglotlar kishilarning qaysi tilda fikrlayotganini, odatda, aniq biladilar. Hatto biror tildagi ifoda noto'g'ri chiqib qolsa, nishondagi kishi boshqa tilda fikrlab, fikrni boshqa tilda yuzaga chiqarishayotganini ham aniqlay olishadi. Inson o'z fikrini nafaqat nutq tovushlari yordamida, balki muayyan nutq vaziyati taqozosi bilan qo'llaniladigan sukut, ohang va boshqa fakultativ (vaqtincha) birliklar asosida ham ifodalay oladi. Demak, nutq jarayonida lingvistik birliklarga hamroh, yordamchi, ularni kompensatsiya qila oladigan boshqa –

ohang, imo-ishoralar, belgilar bilan bir qatorda sukut hodisasi ham nutqiy tizim tarkibida turar ekan, unga nutqiy tizimning tarkubiy qismi sifatida qarash o‘rinli.

Nutqning 2 xil ko‘rinishi mavjud: og‘zaki va yozma. O‘z navbatida, og‘zaki ko‘rinishning o‘zi ham verbal (lisoniy birliklar asosida shakllangan) va noverbal (nolisoniy birliklar asosida shakllangan) turlarga bo‘linadi (Qarang: 1.1-jadval):

**“1.1-jadval.” Nutq ko‘rinishlari**

Nutq ko‘rinishlari		
yozma	og‘zaki	
	verbal	noverbal
<i>harf, belgi</i>	<i>lisoniy birliklar– fonema, morfema, qolip – asosida shakllangan</i>	<i>nolisoniy birliklar – imo-ishoralar, mimikalar, suhbatdoshning maneralari, simvollar, ohang, sukut– asosida shakllangan</i>

Muayyan bir til o‘sha tilda muloqot qiluvchilar uchun erkin, tayyor va tushunarli so‘zlashuv vositasi sifatida xizmat qilishini bilamiz, ammo noverbal vositalar, masalan, sukut haqida bunday fikr yuritish to‘la asosli bo‘la olmasligi ham mumkin. Chunki nutqiy muloqot jarayonida foydalaniladigan sukut ma’lum jamiyat kishilari aloqa-munosabatining samarasidir, u ijtimoiy guruh, davr va muayyan nutqiy sharoitni taqozo etadi. Jumladan, bugungi kunda sukut saqlash bir qator mamlakatlarda ta’ziya paytida marhumning xotirasiga hurmat belgisi sanaladi, yana “O‘lim haq”, “Bizning ham intihomiz – shu” degan ma’nolarda ishlatiladi va bu musulmonlarda janoza paytida yig‘ilganlardan “Marhumning biror kishidan qarzi bormi?” yoki “Marhumning hech kimdan qarzi yo‘q deb hisoblasak bo‘ladimi?” degan savollarga sukut bilan javob qaytarish holatiga oppozitsiyada turadi. Keyingi holatda saqlangan sukut marhumning qarzsiz emasligidan dalolatdir. Qadimda jang paytida qo‘shni tomonning sulh haqidagi taklifiga nisbatan saqlangan sukut “Jangni davom ettiramiz” degan ma’noni anglatgan bo‘lsa, o‘zbek qizlarining sovchilarga beriladigan javobidagi sukuti “Sukut – alomati rizo” vazifasini bajaradi.

Yoki jangovar holatda qumondonning qo‘shinga qarata “Jangga tayyormizmi?” degan xitobi(aslida, bu “O‘limga tayyormizmi?” degan ma’noni beradi)ga nisbatan butun boshli qo‘shinning sukut saqlashi “Behuda o‘lib ketmoqchi emasmiz” (ya’ni “Yo‘q”) degan ma’noni anglatga, Abdulla Qodiriy (“Mehrobdan chayon”) Anvarining Ra’noga “...Shu husning, shu malohating va shu latofating bilan tamom meniki bo‘larsan, shundaymi?” degan so‘rog‘iga “Ra’no javob bermay Anvarning og‘ushidan o‘zini qutqarib o‘rnidan turdi” holati ijobiy (ya’ni “Ha”) ma’noni yuzaga chiqargan. Ko‘rinadiki, sukut hodisasiga nisbatan faqat bir xil izoh berish biryoqlama qarashdir. Shuning uchun ham, sukut hodisasini makon va zamon, til va mentalitet kesimida o‘rganish maqsadga



muvofiq.

Ushbu bobning uchinchi bo‘limi “*Sukutning tadqiqiy va tasnifiy belgilari*” deb nomlangan. Nutq jarayonidagi sukutni umumiy mazmun-mohiyatiga ko‘ra ijobiy ma‘noli sukut (kuchli (quvonchli) his-hayajonga berilgandagi jimlik; kamtarlik belgisi bo‘lgan jimlik; nutqiy muloqotni ma‘qullash, qo‘llab quvvatlovchi sukut; yaqinlik, qat‘iyatlilik natijasidagi sukut va h.); salbiy ma‘noli sukut (tahdid soluvchi sukut; xafa bo‘lgandagi sukut; affektiv holatlardagi sukut va b.) va neytral ma‘noli sukut (mulohaza sukuti; tabiatan (xarakter jihatidan) bosiqlik oqibatidagi sukut va h.) kabi turlarga bo‘lish mumkin.

Sukut va so‘zlash o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjud. Lingvistik belgilar biror narsaga ishora qiladi, yetishmayotgan narsani almashtiradi, lekin belgilarning o‘zini ham almashtirish mumkin. Shunday sharoitda sukut yetishmayotgan belgilar belgisi (V.Shmits)ga aylanadi. Sukut nutqiy jarayonni buzmaydi, agar nutqda hamma narsani ovoz chiqarib aytish (yoki yozish) mumkin emasligini inobatga olsak, sukut nutqni mukammallashtirishi ma‘lum bo‘ladi. O‘zbek nutqida ijobiy ma‘noli sukut turi kamroq, salbiy ma‘noli sukut turi esa ko‘proq uchraydi. Sukutning har qaysi ko‘rinishi faqat kishilarning o‘zaro nutqiy muloqotida namoyon bo‘ladi. Ijobiy xarakterdagi sukut suhbatdoshda mehr-muhabbat; kamtarlik, andishalilik kabi insoniy fazilatlar samarasi sifatida yuzaga kelsa, salbiy xarakterdagi jimlik esa suhbatdoshga, yetkazilgan axborotga, ba‘zan esa tevarakatofidagilarga, butun jamiyatga nisbatan nafrat, g‘azab, ishonchsizlik, norozilik; qo‘rquv, ikkilanish, bilimsizlik, dunyoqarashi torlikdan, shuningdek, tarang vaziyat, noqulaylik, kelishmovchilik kabilardan kelib chiqadi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi “*Sukut turlari: to‘xtash, jim turish, indamaslik, mutlaqo gapirmaslik*” deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda sukut hodisasi to‘xtash, jim turish, indamaslik, mutlaqo gapirmaslikdan farqlangan.

To‘xtash (pauza) [lot. pause < yun. pauses – to‘xtatish, tugatish]

1. Nutq orasidagi, ma‘lum ish jarayonidagi uzilish, to‘xtash. Pauza cho‘zilib keta boshlaganidan keyin Gavhar o‘rnidan turib orqasiga o‘girildi-da: –Ha, qani kim qaysi mavzuga qiziqadi? – deb so‘radi. P.Qodirov, Uch ildiz.

2 mus. Kuy, ashula o‘rtasidagi muayyan vaqt uzilish, to‘xtash va uning notadagi belgisi.

Nazariy tilshunoslikning umumiy fonetika qismida intonatsiya va uning tarkibida qo‘llaniladigan vositalar – tovush balandligi, kuchi, cho‘ziqligi, tezligi (tempi), tembr bilan bir qatorda pauza ham o‘rganiladi. Shuningdek, mantiqiy va emfatik urg‘u ostidagi so‘zlarda pauza ham ko‘maklashuvchi vosita sifatida qatnashadi. Bu kabi urg‘ularni olgan so‘zlardan oldin ko‘p hollarda pauza paydo bo‘ladi.

Fraza nutqqa xos fonetik birlik bo‘lib, har ikki tomonidan chuqur pauza bilan bo‘lingan eng katta segment hisoblanadi. Fraza va gaplardagi so‘zlarning biror bo‘g‘inini ajratib talaffuz qilish fraza urg‘usi deyiladi. Fraza urg‘usi intonatsiyaning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Demak, nutq orasidagi to‘xtash sukut hodisasidan farq qiladi va bu to‘xtash, ya‘ni pauza qisqa uzilish

(nafas rostdash) shaklida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda, pauza so'zlovchining muayyan ichki his-tuyg'ulari(g'azab, asab tarangligi, mensimaslik, bepisandlik, beparvolik, kamtarlik, so'z topolmay qolish va h.lar)ni ifodalashga xizmat qilmaydi.

Jim turish (yoki jim o'tirish) gapirmay, e'tiroz bildirmay, qarshilik ko'rsatmay turavermoq. – To'g'ri, – dedi O'rmon polvon, – agar jim tursak, ular har bir ish qiladilar. S.Ayniy, Qullar.

Jim turish, ya'ni e'tiroz bildirmay, qarshilik ko'rsatmay turaverish, V.N.Babayan tasnifida aytilganidek, rozilik alomati bo'lishi ham, noqulay vaziyatda javobdan qochish yoki javob berishga kuchi yetmaslik holati bo'lishi ham, suhbatni davom ettirishni istamaslik oqibati bo'lishi ham mumkin yoki, A.Kubrik aytganidek, muloqot ishtirokchisi suhbatdoshining fikriga qo'shilmaydi, ammo buni ochiq aytmay odob doirasida jim turadi. Fikrimizcha, sukut – jim turishdan ko'ra kattaroq hodisa. Jim turish, odatda, sukutning muayyan qirralarinigina qamrab oladi va ba'zan sukut hodisasiga teng kelishi ham yoki to'laligicha teng kela olmasligi ham mumkin. Sukut hodisasi bevosita muloqot nazariyasi bilan bog'liq, chunki sukut kommunikativ hodisa bo'lgani uchun ham, u muloqot aktining ajralmas qismidir. Zero, muloqot nazariyasida sukut aloqa jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralishi muhim.

Jim turishda sukut aks etadi, ammo sukut jim turishlarning oddiy yig'indisi emas. Ammo aytish joizki, ba'zan sukut so'zining o'rnida jim turmoq fe'li ishlatiladi. Buni mohiyatga sinekdoxik (ya'ni butunning nomi bilan qismni atash yoki, aksincha,) yondashuv sifatida tushunish lozim.

Jim turish holati, tabiiyki, nutq jarayonidan tashqarida bo'lishi ham mumkin. Jim turish eshitish, tinglash jarayonlari bilan bog'liq. Diniy manbalarda keltirilgan: "Jim tura olish insonga berilgan najot topish yo'lidir" degan hikmat dunyoviy voqelik uchun ham qimmatli hisoblanishi shubhasiz.

Indamaslik, aslida, indamoq fe'lining bo'lishsiz shakli hisoblanadi. Odatda, mazkur shakl kerak, zarur, lozim, shart so'zlari bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, Bedov ot bedalasa, indamaslik kerak. (Maqol) Ahmoq og'zini ochganda, indamaslik kerak.

Ba'zan yakka holda qo'llanishi ham mumkin: Yolg'iz bolaga indamasang, ko'payar. (Maqol) Indamasang, uyday balodan qutulasan/ Indamasang, gap yukidan qutulasan. (Maqol) Yotaversang yov olar, Indamasang – dov. (Maqol)

Indamaslik so'zi harakat nomining bo'lishsiz shakli bo'lganligi uchun o'zida bemalol otga xos xususiyatlarni namoyon eta oladi. Bu holat o'zbek xalq maqollarida ko'plab uchraydi. Jumladan, Indamasni it qopar/ Indamasni ot tepar. (Maqol); Indamasdan ish chiqar/ Indamasdan inday balo chiqar/ Indamasdan o't chiqar (Maqol) Indamaslik birligi ham (jim turmoq fe'li kabi) o'zida sukut hodisasining ma'lum qirralarini aks ettiradi, biroq sukut nutqiy muloqot akti sifatida indamaslikning oddiy yig'indisi emas. Masalan, indamaslik fe'li sukut ifodalaydigan ehtiyotkorlikdan kelib chiqqan sukut, mulohaza sukuti yoki tahdid soluvchi sukut ma'nolarini to'laqonli ifodalamasligi mumkin. (O'zbek nutqida

qabriston, go‘riston makon nomlari o‘rnida ishlatiladigan indamaslar makoni, indamaslar olami metaforik birliklari (Indamaslar olamin sayr ayladim, Sayr etib men beriyo xayr ayladim (Chustiy)ning kelib chiqishi ham indamaslik birligi bilan bog‘liq.)

Mutlaqo gapirmaslik. Nutqiy muloqot jarayonida suhbatdoshlardan birining mutlaqo gapirmasligi quyidagi holatlarni ifodalashi mumkin: 1) kishi, odatda, qattiq dard chekkanda, chuqur iztiroblar girdobida bo‘lganda, yaqinlaridan ayrilib qayg‘uga botganda suhbatdoshining daldalariga mutlaqo gapirmaslik bilan o‘zining suhbat jarayonida to‘laqonli ishtirok eta olmasligini bildiradi; 2) muloqot ishtirokchisi suhbatdoshiga yoki suhbat mavzusiga (suhbatda aytilgan biror fikrga) nisbatan o‘zining kuchli noroziligi, nafrat yoki g‘azabini mutlaqo gapirmaslik orqali ifodalaydi; 3) suhbat jarayonida nima deyishni va qanday javob berishni bilmagan kishi mutlaqo gapirmaydi; 4) mutlaqo gapirmaslik madaniy kod bo‘lishi ham mumkin; 5) muloqot ishtirokchisi fikrsizlik oqibatida ham mutlaqo gapirmasligi mumkin; 6) erkak kommunikant qarshi jins vakili bilan teng bo‘lmalik uchun mutlaqo gapirmasligi mumkin (yoki aksincha).

Ta’kidlash joizki, mutlaqo gapirmaslik kommunikantning nutq jarayonida ishtirok etmadi degani emas. Demak, to‘xtash, jim turish, indamaslik, mutlaqo gapirmaslik sukutning turlari sifatida gradual xususiyatga ega bo‘lib, mazkur birliklar uchun sukut umumiylik; qolgan birliklar esa nutqiy muloqotda sukut ifodalay oladigan ma’nolarning muayyan qirralarini yoritib berishga xizmat qiluvchi, uning tarkibiy xususiyliklari sanaladi.

Bobning oxirgi bo‘limi “*Sukutda ichki nutqning voqelanishi*” deb nomlanadi. Til informatsiyasining ichki va tashqi tomoni mavjud, ichki tomoni til strukturasi ga oid bo‘lsa, tashqi tomoni nutq vaziyatiga tegishlidir. Aynan, til informatsiyasining tashqi tomoni diskursda verbal birliklar bilan bir qatorda naverbal vositalarni ham taqozo etadi. Zotan, diskurs ularsiz to‘laqonli bo‘lmaydi. Imo-ishoralar, ohang kabi sukut ham inson tafakkurida ma’lum ma’noga xoslanadi. Ya’ni obyektiv borliqdagi narsa, hodisa, harakat, ichki, tashqi holatlar, munosabatlar ham barcha-barchasi inson tafakkurida aks etishi ma’lum. Tafakkur ifodalari tilda moddiylashadi va nutqda so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn orqali voqelanadi. Demak, bu jihatdan sukut diskursda so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn o‘rnida vazifa bajaradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Badiiy dialogik matnda sukutning o‘rni**” deb nomlanib, to‘rtta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim “*Nutqiy muloqotda sukutning ahamiyati*” deb nomlanadi. Nutqiy muloqotda kommunikantlarning tafakkuri “Hozirgi nutqiy sharoitda qaysi birlikni qo‘llagan ma’qul yoki qaysini qo‘llash samara beradi, maqsadga erishtiradi?” degan muammoni lahzalarda hal etib turadi. Tabiiyki, bunday samaradorlikka faqat “lisoniy imkoniyatlar”dan foydalanish asosidagina emas, balki tanlangan lisoniy vositalarni psixik, fiziologik, sof fizik, etnik, tabiiy kabi o‘nlab nolisoniy omillar bilan bog‘lanishda qo‘llagandagina erishish mumkin.

Nutqiy muloqotning asosiy vazifasi kommunikantlarning bir-biriga ta’sir

o‘tkazishini taqozo etadi, bunda ijtimoiy faoliyatning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida nutqiy muloqot o‘ziga xos o‘ta qisqa muddatda muvaqqat butunlikni yuzaga keltiradi va oniy (situativ) pragmatik tizimni tashkil etadi. Muloqot jarayonida kommunikantlarning biror holati, harakati yo‘qki, ular “gapirma”, “nimadir demasa”. Sukut – indamasdan indash, so‘zlamasdan so‘zlash, qalb hayqirig‘i, nodonga aqlli javob. Ba‘zan u nodonlik belgisi bo‘lishi ham tabiiy hol. Shunday ekan, nutqiy muloqotda sukut ifodalagan informatsion qiymat (birovning dilini og‘ritmaslik omili; suhbatdoshni tahqirlash, mensimaslik quroli; yashirin qahr-g‘azab va taajjub; shaxsning ma‘naviy kamoloti belgisi; qo‘rquv, o‘jizlik nishonasi va h.) tahlili ko‘rsatadiki, sukut lingvoma‘naviy birliklar sirasidan o‘rin egallay oladigan nolisoniy muloqot birligidir.

Bobning ikkinchi bo‘limi “*Nutqiy muloqotning turli o‘rinlarida sukut saqlanishi*” deb nomlanadi. Bunda o‘zbekona nutqiy muloqotning turli o‘rinlarida sukut saqlanishi ifodalagan ma‘nolarni badiiy asarlardan olingan misollar asosida ko‘rib o‘tildi. Jumladan,

1. Nutqiy muloqotga kirishish oldidan sukut saqlanishi: a) nutqiy muloqotga kirishish oldidan so‘zlovchining sukut saqlashi; b) nutqiy muloqotga kirishish oldidan tinglovchining sukut saqlashi.

2. Nutqiy muloqot davomida sukut saqlanishi: a) nutqiy muloqot davomida so‘zlovchining sukut saqlashi; b) nutqiy muloqot davomida tinglovchining sukut saqlashi.

3. Nutqiy muloqot yakunida sukut saqlanishi: a) nutqiy muloqot yakunida so‘zlovchining sukut saqlashi; b) nutqiy muloqot yakunida tinglovchining sukut saqlashi.

4. Nutqiy muloqotning so‘zsiz amalga oshirilishi.

Masalan, *Ular bir-birlarin tushunarlar jim...* (A.Oripovdan)

So‘zlar ortiqcha bo‘lsa, sukut odamlar o‘rtasidagi yaqinlik belgisi bo‘lishi mumkin. Ular bir-birlarini shunchalik yaxshi tushunadilar, his qiladilarki, ularga so‘z aytishga hojat yo‘q: his-tuyg‘ularga va ruhiy bog‘lanish hisi bilan to‘lgan sukut ancha yaxshi “gapiradi”. Keltirilgan misolda muloqot qiluvchilarning har ikkalasi sukutning mazmunan to‘yinganligini va bu o‘rinda so‘zlarning foydasizligini chuqur his qilishadi.

Bobning uchinchi bo‘limi “*Badiiy matnda sukutning eksplitsit va implitsit ifodasi*” deb nomlanadi. O‘zbek xalqida “kosa tagida nimkosa” degan ajoyib naql bor. Buning ma‘nosi shuki, ba‘zan bir gapimiz boshqa bir mazmunni ifodalaydigan gapga ishora qiladi. Nutqiy muloqot jarayonida, ko‘pincha, tinglovchining “qattiq patiga tegib qo‘ymaslik” uchun “o‘rab” gapiramiz. “O‘rab” gapirishimizni nutqiy vaziyatning o‘zi taqozo etadiki, so‘zlovchi, odatda, buni nutq jarayonidan avval rejalashtirmaydi. Tinglovchi(o‘quvchi)ga taqdim etilayotgan axborot tarkibida muayyan kodning yashirilishi va shu yashirin mohiyatni topish, idrok etish tinglovchi (o‘quvchi) hukmiga havola etilishi o‘zbek adabiyotshunosligida, o‘zbek tilshunosligida bo‘lak-bo‘lak tarzda, ba‘zan yo‘l-yo‘lakay o‘rganilgan. Jahon pragmalingvistlari mazkur hodisalarni implitsit atamasi ostida birlashtirib o‘rganishni ma‘qul ko‘rishdi.

Badiiy asarda sukut tashiyotgan muayyan axborotning lisoniy belgilar orqali bevosita izohlanishi sukutning eksplitsit ifodalanishi sanaladi. Agar sukut ifodalayotgan ma'no ijodkor tomonidan leksik va grammatik belgilari orqali uzual ifodalanmasa-da, uning o'quvchi (tinglovchi) tomonidan mustaqil idrok etilishi ko'zda tutilsa, ma'noning implitsit ifodalanishi hisoblanadi. Demak, nutqiy muloqotda sukut tashiyotgan axborot oshkora ifodalansa, bu eksplitsit ifodalanish, sukut ifodalayotgan ma'no yashirin tarzda berilsa va shu yashirin ma'noga ishora etilsa, bu implitsit ifodalanish sanaladi. O'zbek tilshunosligida hozirgacha o'rganilgan badiiy asarning zohiriy va botiniy ma'nolarini yuzaga chiqaruvchi vositalar yoki o'zbek adabiyotshunosligidagi ma'no va tagma'no bilan bog'liq qarashlar implitsit hamda eksplitsit hodisalari uchun umumiylik-xususiylik xarakterida bo'ladi.

Jim qolishda kommunikantlarning statuslari ham katta ahamiyatga ega, ularning kasb-kori, lavozimi, mavqeyi ta'siri bilan bir qatorda, gender xususiyatlari kommunikativ aktda egallaydigan pozitsiyalarini belgilab beradi. Boshqacha aytganda, badiiy asarda lisoniy va nolisoniy vositalarning uslub talabi va so'zlovchining kommunikativ maqsadiga ko'ra "o'rin almashishi" implitsit tarzda yuz beradi.

Bobning to'rtinchi bo'limi "*Sukut saqlash sabablari*" deb nomlanadi. Mark Avreliy kishilarning sukut saqlash sabablarini shunday izohlaydi: "Odatda, kishilar biror muammoga duch kelganda, toliqqanda yoki juda zerikkanida sukutga intiladi, yolg'izlikni qidiradi... Inson ruhiyatining asl maskani sukutdadir".

E.Esterberg sukut tasnifida insonning sukut saqlashi sabablarini ham tahlilga tortadi va bu kishining fiziologik hamda ruhiy holatiga bog'liq deb yozadi. V.N.Babayan fikricha, kishi noqulay vaziyatda qolganda, javobga kuchi yetmaganda, suhbatdoshiga salbiy his-tuyg'ularini bildirishni istaganda, suhbatni davom ettirishni istamaganda, suhbat mavzusiga bee'tibor/betaraf, rozi yoki norozi bo'lganda sukut saqlaydi.

Jef Verseyren insonning sukut saqlashi sabablarini shunday sanaydi: 1) fikrsiz, aytishga gapi yo'q yoki befarq kishi sukut saqlaydi; 2) kuchli his-hayajon yoki qattiq qayg'udagi kishi sukut saqlaydi; 3) fikrlari chalkash, xayollari tarqoq odam indamay turadi; 4) sir saqlayotgan kishi sukut saqlaydi; 5) suhbatdoshining gapini bo'lmaslik uchun sukut saqlaydi; 6) kishi tabiatan (xarakter jihatidan) bosiq bo'lsa, sukut saqlaydi. A.Kibrlik fikricha, muloqot ishtirokchisi uchun suhbat mavzusi qiziqarli bo'lmaganda; kommunikant nima deyishni va qanday javob berishni bilmaganda; suhbatdoshidan o'z fikrini yashirganda; kommunikant odob doirasida (suhbatdoshiga nafrat-g'azabini sochmaslik, uning ustidan kulmaslik va h.) sukut saqlaydi. T.Bryuno, O.Nosova, M.Argayl, S.V.Melikyan, V.V.Bibixin tasniflarida ham nutqiy muloqot jarayonida kommunikantlardan birining yoki har birining sukut saqlash sabablari yuqorida sanab o'tilganlar asosida tadqiq etilgan. Aslida, nutqiy muloqot jarayonida har bir kommunikant holiga yarasha sukut saqlaydi. Chunki katta mantiqqa ega bo'lgan sukut uchun kishida katta aql, teran tafakkur, keng dunyoqarash bo'lishi zarur.

Nutqdagi har bir sukutning ma'nosi bor. Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan

nutqiy jarayonda sukut saqlash sabablarini guruhlab olsak, to‘g‘ri bo‘ladi. Demak, kommunikativ sukutni avvalo ikki guruhga bo‘lib olamiz: ma’nosiz sukut va ma’noli sukut (Qarang: 2.1-jadval):

**“2.1-jadval.” Kommunikativ sukutning yuzaga kelish sabablari**

<b>Diskursda kommunikativ sukutning yuzaga kelish sabablari</b>	
Muayyan maqsad asosida yuzaga keluvchi sukut (ma’noli sukut)	Hech qanday maqsadsiz yuzaga keluvchi sukut (ma’nosiz sukut)


Ma’nosiz sukut (hech qanday maqsadsiz yuzaga keluvchi sukut) nutqiy muloqot jarayonida tinglovchi kommunikant suhbat mavzusini tushunmasligi, uning nodonligi, saviyasi pastligi (ba’zan aqliy noqisligi) yoki berilgan savolga javobi yo‘qligi/mulohazasizligi natijasida ro‘y beradiki, bu o‘rindagi sukut garchi kommunikativ xarakterga ega bo‘lsa-da, uni ijobiy baholab bo‘lmaydi.

Ma’noli sukut (muayyan maqsad asosida yuzaga keluvchi sukut) mazmun-mohiyatiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi (Qarang: 2.2-jadval):

**“2.2-jadval.” Ma’noli sukutning yuzaga kelish sabablari**

<b>Muayyan maqsad asosida yuzaga keluvchi sukut(ma’noli sukut)ning yuzaga kelish sabablari</b>			
<b>Odob-axloq doirasidagi sukut</b>	<b>Turli ruhiy holatlardan kelib chiquvchi sukut</b>	<b>Turli ijtimoiy holatlardan kelib chiquvchi sukut</b>	<b>Tabiiy holatlardan kelib chiquvchi sukut</b>
insof, vijdon, odamiylik, andisha, hayo, hurmat, ma’rifatlilik, odamgarchilik, xayrixohlik va h.	xafa bo‘lish, g‘azab, nafirat, qo‘rquv, tushkunlik, kuchli his-hayajon, ruhiy zo‘riqish, toliqish va h.	kasb-kori jihatidan; tobelik, mulohaza yuritish, ehtiyotkorlik, sir saqlash va h.	tabiatan bosliqlik, kamgaplik va h.

To‘plangan materiallarni statistika qilib ko‘rganimizda ma’noli sukutni yuzaga keltiruvchi omillar – ruhiy holat doirasidagi sukut 40 %ni, odob-axloq doirasidagi sukut 33 %ni, ijtimoiy holat doirasidagi sukut 10 %ni va tabiiy holat doirasidagi sukut esa 5 %ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi (Qarang: 2.1-rasm):



**“2.1-rasm.” Kommunikativ sukutning yuzaga kelish sabablari  
(% hisobida)**

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Sukut saqlashning gender va yosh jihatidan farqlanishi**” deb nomlanib, uchta bo‘limdan iborat. Bobning birinchi bo‘limi “*Diskursda ayollar sukut saqlashining badiiy ifodasi*” deb nomlanadi. Nutqiy muloqotda sukut saqlashning gender xoslanishini kuzatamiz. Nutqdagi sukut – ko‘rinmas qobiqdagi achchiq dori. Nutqdagi sukut – xushmuomalalik bilan gapirishga doxil vosita. Sukut yordamida, bir tomondan, suhbatdoshimizga nisbatan xushmuomalalikni namoyon etamiz va u uchun yoqimsiz daqiqalarni bir qadar bartaraf qilamiz. Boshqa tomondan, sukut har qanday savolga javob vazifasini o‘tay oladi. Badiiy asarlarda ifodalangan nutqiy muloqot jarayonida xotin-qizlarning sukut saqlashi – 1) hurmat-e‘tibor; 2) andisha, hayo-ibo; 3) o‘pkalanish; 4) o‘zbek onalariga xos mehr-muhabbat, hurmat, mulohazakorlik; 5) erki bo‘g‘ilgan ayol fojiasini ko‘rsatuvchi tasvir vositasi; 6) diskursning mo‘tadilligini ta‘minlash; 7) fikrlar chalkashligini yuzaga chiqarish vositasi; 8) hasadni yuzaga chiqarish vositasi; 9) havasni yuzaga chiqarish vositasi; 10) itoatkorlik, so‘zsiz bo‘ysunish; 11) norozilik, qarshilik; 12) ilojsizlikdan rozi bo‘lish, majburan ko‘nish; 13) sir saqlash; 14) suhbat mavzusini tushunmaslik; 15) siri ochilishidan qo‘rqish; 16) rasmiy odat tusiga kirib qolish kabi qator ma’nolarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Nutqiy muloqot jarayonida xotin-qizlarning sukut saqlashi kommunikatsiya ishtirokchilariga qarab farqlanadi.

Masalan,

1) ayollarning o‘zaro suhbat jarayonida nutq ishtirokchilarining sukut saqlashi

- 1.1. Tengdosh xotin-qizlar suhbat jarayonida;
- 1.2. Oilali va tul ayol suhbat jarayonida;
- 1.3. Ayol va qiz suhbat jarayonida;
- 1.4. Qarindosh ayollar suhbat jarayonida;
- 1.5. Qarindosh bo‘lmagan ayollar suhbat jarayonida;
- 1.6. Ona va qiz suhbat jarayonida;
- 1.7. Tanish xotin-qizlar suhbat jarayonida;
- 1.8. Notanish xotin-qizlar suhbat jarayonida;
- 1.9. Qalin dugonalar suhbat jarayonida;
- 1.10. «Dugonalar» suhbat jarayonida;
- 1.11. Kelin va qaynona suhbat jarayonida;
- 1.12. Ovsinlar suhbat jarayonida;
- 1.13. Kundoshlar suhbat jarayonida;
- 1.14. Qo‘shnilar suhbat jarayonida va h.

2) ayollarning erkak kishi bilan suhbat jarayonida sukut saqlashi

- 1.1. Er-xotin suhbat jarayonida;
- 1.2. Kelin va qaynola suhbat jarayonida;
- 1.3. Ayol va qo‘shni erkak suhbat jarayonida;
- 1.4. Ayol va boshliq suhbat jarayonida;
- 1.5. Ayol va kasbdoshi suhbat jarayonida;
- 1.6. Ayol va sotuvchi suhbat jarayonida;
- 1.7. Ayol va taksichi suhbat jarayonida;
- 1.8. Ayol va avtobuschi suhbat jarayonida;
- 1.9. Ayol va tanish erkak suhbat jarayonida;
- 1.10. Ayol va notanish erkak suhbat jarayonida;
- 1.11. Ona va o‘g‘il suhbat jarayonida va h.

Ba‘zan ayol kommunikant uchun mushkul savollarning javobi ham sukut hisoblanadi. Zero, nutq rang-baranglikka ega hodisadir. Xulosa shuki, nutqiy muloqot jarayonida ayollarning sukut saqlashi ijobiy fazilat, rozilik alomati bo‘lishi ham; norozilik, isyon yoki qarshilik belgisi bo‘lishi ham; neytral holat yoki hech vaqo bo‘lmasligi ham mumkin.

*“Diskursda erkaklar sukut saqlashining badiiy ifodasi”* deb nomlangan ikkinchi bo‘limda erkaklarning nutqiy muloqot jarayonida sukut saqlashi isyon, noqulaylik, o‘z-o‘zini sarhisob etish, o‘zini (ba‘zan suhbatdoshini) himoyalash, “indamasdan indash”, gapirish befoydaligini his etish, mayda garlardan ustun turish kabi qator ma’nolarni yuzaga chiqarishi badiiy asarlardan olingan misollar asosida dalillangan. Zero, nutqiy muloqot jarayonida suhbatdoshning o‘rinli va o‘z vaqtida sukut saqlashi – yuzlab savollarga beriladigan aqlli javob; suhbatdosh qalbini asrash; ba’zida na haqiqat va na yolg‘onni yoqlovchi betaraflik; kuchli insonlarning insoniy fazilati; noqulay vaziyatlarni yumshatuvchi omil; insonning o‘z qalbini timalishdan saqlovchi vosita kabi mazmuni ham yuzaga chiqaradi.

Bobning *“Turli yoshdagi kishilar sukuti bilan bog‘liq muomalaviy ma’nomalar”* deb nomlangan uchinchi bo‘limida turli yoshdagi kishilar sukuti bilan bog‘liq



muomalaviy ma'nolarni bolalar, yoshlar, o'rta yoshlilar va keksalar nutqi bilan aloqador to'rt guruhga bo'lingan. Jumladan,

bolalar nutqida sukut saqlash ko'proq kattalarning dakki, dashnom berishlaridan cho'chish, hadiksirash, qo'rqish; notanish suhbatdoshdan begonasirash, tortinish; ba'zan ayb ish qilib qo'yganda, kattalar uning ishonchini paymol qilganda "o'z qobig'iga o'ralib olish" holatlarini;

yoshlarning nutqiy muloqot jarayonida sukut saqlashi ulardagi his-hayajon, entikish; notanish tuyg'ularga duch kelish; savollarga javob topolmaslik; birinchi muhabbat armonlari; ayriliq, hijron azobi; uyatchanlik, ibo, andisha oqibatida dilidagini tiliga chiqarolmaslik; odob-axloq doirasida jim turish; sirlarini yashirish; surbetlarcha jim turish kabi qator muomalaviy ma'nolarni;

o'rta yoshlilarning sukuti dunyo sirlarini anglashga intilish; mulohazakorlik, suhbatdosh fikrini mushohada etish; xavotir, qo'rquv; umidsizlik, ruhiy tushkunlik; noilojlik; cheksiz armon; suhbatdoshni (ba'zan o'zini) qalb jarohatlaridan asrash; suhbat mavzusidan qochish yoki uni tushunmaslik; sir saqlash kabi turli-tuman muomalaviy munosabatlarni;

keksa yoshlilarning nutqiy muloqot jarayonida sukut saqlashida nuroniylik; hayot tajribalariga tayangan holda mulohazakorlik; cheksiz armon; g'azabni bosish; qattiq gapirib qo'yib yaqinini yo'qotib qo'yishdan qochish kabi ko'plab ma'nolarni yuzaga chiqaradi.

Demak, nutqiy muloqot jarayonida sukut nafaqat tilning o'ziga xos belgilar tizimini kompensatsiyalaydi, balki muayyan jamiyatdagi odamlarning kommunikativ xatti-harakatlari qoidalari tizimiga daxl qiladi va insonning yosh xususiyatlari bilan ham bog'lanadi. Shuningdek, nutqiy muloqot jarayonida ayol va erkaklarning, bolalar, yoshlar, o'rta yoshlilar va keksalarning sukut saqlashi umumiy tarzda ijobiy fazilat, rozilik alomati bo'lishi ham; norozilik, isyon yoki qarshilik belgisi bo'lishi ham; neytral holat yoki hech qanday mazmun ifodalamasligi ham mumkin.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Sukut saqlashning lingvomadaniy va lingvoma'naviy xususiyatlari**" deb nomlanib, uch bo'limdan tashkil topgan. Bobning birinchi bo'limi "*Diskursda sukut ifodalagan informatsion qiymat*" deb nomlanadi. Pragmatik omillar va nutqiy sukutning o'zaro ta'siri, albatta, o'zbek muloqot madaniyati, muloqot xulqi, muloqot odobi, milliy mentaliteti bilan uzviy bog'liq. Fikmi so'z bilan ifodalash no'rin, noqulay yoki nojoiz bo'lgan joyda "sukut so'zlaydi" va bu o'zbekona muloqot madaniyatidan dalolat beradi. Zero, diskursda sukut saqlashdan foydalanish sukut saqlovchining ma'lum maqsadini ifoda etishga xizmat qiladi.

Nutqiy muloqotda sukut ifodalagan informatsion qiymat, Grays aytganidek, «kam kuch sarflab, ko'p natijaga erishish, ya'ni ma'lum qilinayotgan axborot talab darajasida bo'lishi va ortiqcha ma'lumot bermaslik orqali muloqot samaradorligini belgilash» bilan aloqador. Jumladan, nutqiy muloqotda sukut ifodalagan informatsion qiymat quyidagilarga teng bo'ladi: a) johillar davrasida sukut inqilobga teng; b) og'ir vaziyatlarda sukut saqlab vaziyatdan chiqish – mahorat; d) sukut ba'zan oqilning javobi, johilning niqobi bo'ladi; e) gapirgan gapingga– qarolsan, gapirmaganingga – qirolsan; f) so'zning qadriga yetsang, so'zlamaslik haqida o'ylay boshlaysan; g) birgina sukut minglarcha ko'ngilsizliklarning oldini

olishi mumkin; h) sukut – murosas yo‘llaridan eng afzali. Shuningdek, eng shafqatsizi ham; i) sukut bilan jazolanish – eng og‘riqli jazo; j) sukut – nodonga aqli javob. Ba‘zan u nodonlik belgisining o‘zi bo‘lishi ham mumkin va h. (Qarang: 4.1-rasm):

<b>Johillar davrasida sukut inqilobga teng</b>	<b>Og‘ir vaziyatlarda sukut saqlab vaziyatdan chiqish – mahorat</b>	<b>Sukut ba‘zan oqilning javobi, johilning niqobi bo‘ladi</b>
<b>Gapirgan gapingga - qarolsan, gapirmaganingga - qiolsan</b>	<b>So‘zning qadriga yesang, so‘zlamaslik haqida o‘ylay boshlaysan</b>	<b>Birgina sukut minglarcha ko‘ngilsizliklarning oldini olishi mumkin</b>
<b>Sukut – murosas yo‘llaridan eng afzali. Shuningdek, eng shafqatsizi ham</b>	<b>Sukut bilan jazolanish – eng og‘riqli jazo</b>	<b>Sukut – nodonga aqli javob. Ba‘zan u nodonlik belgisining o‘zi bo‘lishi ham mumkin</b>

#### **“4.1-rasm.” Nutqiy muloqotda sukut ifodalagan informatsion qiymat**

Nutqiy muloqot lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda voqelanishidan iborat shunchaki jarayon natijasi emas. U o‘zining murakkabligi, verbal va noverbal; etnografik, milliy, etik, estetik, psixologik, ijtimoiy kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lgan situativ pragmatik butunlikdir. Pragmatik sukut esa shu butunlikning so‘zlashuvchilar orasidagi munosabatni, ya‘ni murakkab va yoqimsiz tuyg‘ularga olib keladigan holatlarni tartibga solishga imkon beradigan moslashuvchan mexanizmidir.

Bobning ikkinchi bo‘limi *“Diskursda sukut – semantik assotsiatsiyalar manbasi”* deb nomlanadi. Assotsiativlik deganda muayyan birlikning inson lisoniy zaxirasidagi boshqa birliklarni eslatishi, o‘zaro bog‘lanishli tafakkur hosilalarining markaziy tushuncha bilan maydon hosil qilishi tushuniladi. D.Lutfullayeva, assotsiativ maydon tushunchasini izohlaganda, mazkur maydonga o‘zaro semantik bo‘langan birliklar bilan birga, semantik jihatdan bog‘lanmagan, til egalari ruhiyati, duny qarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog‘liq holda xotirasida tiklangan birliklar ham birlashishini aytib o‘tadi.

Nutqiy muloqotdagi sukut semantikasi keng qamrovi, kontseptual jihatdan xilma-xilligi, assotsiativ maydon hosil qilishi, kognitiv bilim, pragmatik ma‘no va psixolingvistik yondashuvni aks ettirishi bilan ajralib turadi. Sukut semantikasini tadqiq qilish olamning lisoniy manzarasini yoritishda, lisoning mental xususiyatlari, tushunchalarni anglashning kognitiv asoslarini tahlil qilishda, leksema semantikasidagi tarixiy lingvistik jarayonlarni izohlashda ham ahamiyatli.

Nutqiy muloqotda sukut ijobiy, salbiy yoki neytral xarakterdagi semantik

assotsiatsiyalar manbayi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlardan keltirilgan misollarda Razzoq so'fining sukuti uning salbiy qusurlarini assotsatsiyalasa, nutqiy muloqotda mirzo Anvarning sukuti uning insoniy fazilatlari, ijobiy xarakter-xususiyatlari bilan aloqador birliklarni yodimizga tushiradi. Ba'zan ijobiy va salbiy jihatlar aralash holatda assotsatsiyalashishi ham mumkin. Shuningdek, nutqiy muloqotda semantik assotsiatsiyalar manbayi bo'lgan sukut stereotip, individual yoki gender assotsiativlikka asoslanishi mumkin.


Stereotip (standart) assotsiativlikda nutqiy muloqotdagi sukut o'quvchi (kitobxon) yodiga odatiy birliklarni tushiradi, ya'ni ularning tafakkurida standart birliklar jonlanadi. Masalan,

ijobiy xarakterli personajlar (A.Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida Otabek – oliyjanob (haqiqiy o'zbek yigitining tipik vakili); "Mehrobdan chayon"da Anvar – mard va halol; O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi"da Aliqushchi – haqiqiy shogird (insoniy fazilatlar egasi); T.Malikning "Shaytanat" asarida Jalil – dangal va haqiqatgo'y va h.);

salbiy xarakterli personajlar (A.Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida Homid – xotinboz; "Mehrobdan chayon"da Abdurahmon – munofiq; O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi"da Abdullatif – padarkush; T.Malikning "Shaytanat" asarida Hosilboyvachcha – maraz va nomard; Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida Razzoq so'fi – manqurt va b.).

Individual assotsiativlikda nutqiy muloqotdagi sukut o'quvchi(kitobxon)ning diniy, dunyoviy qarashlari, hayotiy tajribalari, o'z falsafasi asosida yuzaga kelgan birliklarni yodiga tushiradi. Masalan, Otabek ("O'tkan kunlar") – chuqur zakovat egasi; Miryoqub ("Kecha va kunduz") – iste'dodi to'g'ri yo'lga solinmagan zakovat egasi; Asadbek ("Shaytanat") – jamiyatdan o'ch olishning noto'g'i yo'lini tanlagan kuchli shaxs; Zaynab ("O'tkan kunlar") – sevgi ko'zini ko'r qilgan ayol; Qurvonbibi ("Kecha va kunduz"), Manzura ("Shaytanat") – erini xudo bilgan o'zbek ayollarining tipik vakillari va h.

Gender assotsiativlikda erkak va ayolning diskursda sukut saqlashidagi o'xshash hamda farqli jihatlar nazarda tutiladi. Masalan, noz-firoq ma'nosidagi sukut, odatda, ayol kommunikantga xos bo'lsa, nutqiy muloqotda ayollarga nisbatan (garchi ular nohaq bo'lsalar-da) madaniyat nuqtayi nazaridan sukut saqlash, ko'pincha, erkak kommunikantlarga tegishli. Buni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (Qarang: 4.2-rasm):



**“4.2-rasm.” Nutqiy muloqotda sukut – stereotip, individual, gender assotsiatsiyalar manbayi**

Nutqiy muloqot jarayonida kommunikantlar(yo adresat, yo adresant, baʼzan har ikkalovi)ning sukut saqlashi orqali muayyan voqelikning inson tafakkurida aks etishi, lisonga koʻchishi, baʼzan ichki nutqqa chiqishi oʻziga xos murakkab jarayon boʻlib, bu nutqda lisoniy birliklarning nolisoniy vosita bilan almashinuvi evaziga roʻy beradi va oʻziga xos assotsiativlikni yuzaga keltiradi. Demak, nutqiy muloqotda sukut ham ongda assotsiativ bogʻlanishlarning paydo boʻlishiga yordam beradi va oʻziga xos badiiy-estetik qimmat kasb etadi.

Bobning uchinchi boʻlimi “*Sukut lingvomaʼnaviy birlik sifatida*” deb nomlanadi. Lingvomaʼnaviyat milliy oʻzlikning tilda aks etishidir. Badiiy asarlarda sukut lingvomaʼnaviyatning tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻladi. Masalan,

*Bir suhbat chogʻida Hazrat Paygʻambar*

*Oʻrtaga tashladi savol nogahon.*

*Aytdilar: – Zarurat tugʻilsa magar*

*Kimni atardingiz asl pahlavon?*

*Sahobalar dedi: – Har kim doimo*

*Chekiga tushganni kelgandir olib.*

*Kurash maydoniga chiqqanda ammo,*

*Pahlavon sanalgay kim boʻlsa gʻolib.*

*Rasululloh dedi: – Koʻhnadir jahon,*

*Turfa xil kuch-qudrat bordir odamda.*

*Lekin oʻz jahlini yengolgan inson*

*Haqiqiy pahlavon erur olamda. (A.Oripov sheʼri)*

Abdulla Oripovning “Pahlavon” sheʼrida “oʻz jahlini yengolgan inson” deyilganda ham jahli, gʻazabi chiqqanda tiliga erk bermasdan, sukut saqlay olgan kishi nazarda tutiladi va bu paygʻambarimiz Muhammad allayhi vassallamning “Qachonki jahling chiqsa, sukut saqla” degan hadislarining sheʼriy ifodasi hisoblanadi. Oʻzbek xalqida: “Jahl kelganda aql ketar” degan maqol bor. Insonning tabiatida shunday narsa bor: jahli chiqqanda hamma narsani unutib, tilining,

mushtining jilovini qo‘yib yuborishi hech gapmas. Bunday paytlarda jaholatning qo‘li baland kelib, ko‘ngilsizliklar ro‘y berishi, bundan ko‘pchilik aziyat chekishi tayin. Demak, aksariyat ko‘ngilsizliklarning oldini oluvchi vosita – nutqiy muloqot jarayonida sukut saqlamoq hisoblanadi.

Shu o‘rinda sukut lingvoma‘naviyatning o‘zbekona bosiqlikni, sipolik va jahlni jilovlab olishni ifodalovchi bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi.

Misol. Anchagina so‘zsiz o‘lturgandan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi.

– O‘glim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek ma‘lumki, ularning “qilib qo‘yg‘an yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini” albatta bilar edi.

Shundog‘am bo‘lsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning o‘gullari ustidan qilgan ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas,– dedi.

Hoji o‘glining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi. Yana oraga jimjitlik kirdi. Bu so‘zsizlik ma‘nosiga O‘zbek oyim tushuna olmagan edi. (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar, 134-b.)

Yusufbek hojining sukutida o‘zbek mentalitetiga xos quyidagi lingvoma‘naviy xususiyatlar yuzaga chiqadi:

1) ota va o‘g‘il munosabatida o‘ta ehtiyotkorlik va xushmuomalalik: Bilamizki, o‘zbek milliy madaniyatida aqlli otalar o‘g‘il farzandlari tarbiyasi bilan o‘zlari, qiz farzandlari tarbiyasi bilan esa ahli ayollari shug‘ullanishgan. Otalar o‘g‘il farzandlariga oila, sulolalarining davomchisi, ertangi kunlarining egasi sifatida qarashgan. O‘g‘illarining o‘qimishli, hunarli, odobli bo‘lishi, biror kasb-hunar bilan shug‘ullanishi uchun sa‘y-harakat qilishgan. Tabiiyki, ota va o‘g‘il munosabatida xushyorlikni qo‘ldan bermaslikka, farzandlarining qarorlarini hurmat qilishga, qo‘llab-quvvatlashga harakat qilishgan. Agarda farzandlarining qarorlarida «kemtik»lik yoki og‘ishish holatlarini sezishsa, buni ularga ehtiyotkorlik bilan tushuntirishga harakat qilishgan.

Keltirilgan parchada ota kommunikant(Yusufbek hoji)ning implitsit (“bir ish qilib qo‘ydiq...”; “Hoji o‘glining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotiniga qarab oldi. Yana oraga jimjitlik kirdi.”) holatda sukut saqlashida ham “O‘g‘limizning ustida uning o‘zi bilan bemaslahat bunday ish qilishga, aslida, haqsizimiz” degan lingvoma‘naviy xususiyatlarni ifodalovchi istihola bor;

2) oila xotirjamligini saqlashga harakat qilish: Asar personajlaridan biri O‘zbek oyim – o‘z davrida Toshkentning “kovushi ko‘chada qolmagan” old ayollaridan biri. Unda Toshkent ayollarini lol qoldirib to‘y o‘tkazish, chiroyi tillarda doston kelin qilish, kelini uning xizmatida bo‘lishi, nevaralar ko‘rish orzusi bor. (Bunday orzu-havas hozirgi kunda ham aksariyat o‘zbek onalariga xos.) Otabek Marg‘ilondan sevib uylangan. Unda (Homidvoylarga o‘xshab) takror uylanish istagi yo‘q. Shunday sharoitda oila tarozisining porsang toshini tenglashtirish, ya‘ni oila xotirjamligini saqlashga harakat qilish oila boshlig‘i Yusufbek hojining zimmasiga tushmoqda. Yusufbek hojining sukutida, bir tomondan, o‘g‘lining haqligi istiholasi, ikkinchi tomondan esa, xotining

o'g'lidagi onalik haqi, uchinchi tomondan, oilada tinchlik, mo'tadil muhitni saqlash maslagi bor. O'zbek jamiyatida oila muqaddas qo'rg'on ekanligini, uni buzilishdan saqlash hamma narsadan ustun ekanligini bilamiz. Hatto diniy manbalarda: "Bir oila buzilsa, yetti qavat osmon larzaga keladi" degan hikmat keltirilgan. Demak, Yusufbek hojining mulohazali sukutida oilada tinchlik, mo'tadil muhitni saqlash maslagi ustun keldi, deyish mumkin.

Jaloliddin Rumiylarning hazratlari shunday yozadilar: "Sayoz suvlarni eng yengil shamol ham to'lqinlantira oladi... Chuqur dengizlarni esa faqatgina chuqur (katta) dardlar. Angladimki, chuqur va sir-asrorli bo'lgan har bir narsa sukut saqlaydi. Va yana shuni angladimki, sukut saqlagan har bir narsa chuqur va haybatlidir". Demak, nutqiy muloqot chog'ida ham o'rinli saqlangan sukut chuqur ma'noga ega, verbal nutqqa teng, ba'zan undan-da ta'sirchanroq nutqiy vositadir.

Xalqimiz hamisha ma'noli sukutni ma'nosiz gap-so'zlardan afzal deb hisoblaydi va suhbat chog'ida "munosib javobing bo'lmasa, sukut oltinga tengligini unutma" deb o'git beradi. Kishi hayotda ham chiroyli gapirib amali gapiga teng kelmaydigan kishilarga emas, aksincha, jim turib go'zal ishlar qiladigan insonlarga ergashadi. Aslida, nutqiy muloqot jarayonida sukut uchun sarflangan kuch, odatda, gapirishga sarflanagan energiyadan ko'ra ikki barobar ko'proq bo'ladi va aqli tetik, farosati baland, ma'nan kuchli kishilargina kerakli o'rinda sukut saqlashni uddalaydilarki, bu – professor Baxtiyor Mengliyev ta'kidlaganidek: "til bag'ridagi ma'naviyat"dir. O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ida shunday yozadi: "O'zining donoligini ko'rsatish uchun gapiradigan odamdan o'zining nodonligini yashirish uchun sukut saqlaydigan odam aqlliyoqdir". Shuningdek, o'zbek lingvoma'naviyati kishilarning yutuqqa erishgan paytda jim turishini ishonch; g'azab paytidagi sukutini jasorat, donolik; ish paytida jim turishini ijodga mashg'ullik; nasihat paytidagi sukutni odoblilik; mahzunlik, musibat paytida jim turishni sabrlilik, aql belgisi deb hisoblaydi.

Demak, til ma'naviyatning ifodalovchi, saqlovchi, boyituvchi va uzatuvchi vositasi bo'lgani kabi uning noverbal vositalari, jumladan, nutqiy muloqotda goh eksplitsit, goh implitsit tarzda qo'llaniladigan sukut ham asosiy lingvoma'naviy birliklardan biridir.

## XULOSA

1. Nutqiy muloqot jarayoni lisoniy verbal va noverbal vositalarning hamkorlikda (birgalikda) ishlatilishini taqozo etadiki, bunda so'zsiz muloqotning bir ko'rinishi sifatida baholanishi lozim bo'lgan sukutning ham muhim o'rni mavjud. Sukut o'ziga xos oniylik (situativlik), muayyan kommunikantlar, zamon va makon, shart-sharoit, maqsad/sabab va oqibat bilan uzviy bog'langan o'ta qisqa bir zamonda sodir bo'ladigan pragmatik tizim hisoblanmish nutqiy muloqotning asosiy tarkiblaridan biridir.

2. Sukut serqirra hodisa bo'lganligi uchun ham qadimdan falsafa, ilohiyot, madaniyatshunoslik, ma'naviyatshunoslik, psixologiya, semiotika, tilshunoslik kabi sohalarda o'ziga xos tarzda o'rganilgan bo'lsa, hozirda o'zaro integratsiyaga asoslangan lingvofilosofiya, lingvoetnografiya, lingvopsixologiya, lingvokulturo-

logiya, lingvoma'naviyatshunoslik, shuningdek, amaliy tilshunoslik fanlarining tadqiq obyektiga aylangan.

3. Falsafa XIX asr oxiri XX asr boshlaridayoq sukut – nutq madaniyatining unsuri, u nafaqat nutq madaniyati, balki umuminsoniy madaniyat bilan bog'liq bo'lgan jihat, undan unumli va o'rinli foydalanishni har bir kishi bilishi hamda hisobga olishi kerakligi; sukut va undan foydalanish zamon, makon, millat yoki mavqe tanlamasligi hamisha ham e'tiborga olinavermasligi; aslida, sukut so'z o'rnida ishlatilishi va so'zda ifodalanishi mumkin bo'lgan mantiqni yuzaga chiqara olishi; sukut so'zdan kam paradoksal emasligini aniqladi.

4. Islom dinida sukut hodisasiga alohida e'tibor qaratilgan. Musulmonlarning mo'minligi, oqilligi belgilaridan biri sukut bo'lib, buning asl ildizlari Qur'oni Karim hamda hadislarga borib taqaladi. Qur'oni Karimda alloh taolo bandalarini ko'proq sukut saqlashga buyuradi, sukut hodisasini nutqiy muloqot jarayonida ham, ba'zan undan tashqarida ham mo'min kishining fazilati sifatida targ'ib etadi. Zero, Qur'oni Karimdagi o'ndan ortiq oyatlar suhbat chog'ida sukut saqlashning ijobiy jihatlari bilan bog'liq.

Xristian dinida sukut hodisasi – “xudoning sirlarini inson tilida aytib bo'lmaslik” tushunchasi bilan aloqador birlik; monastir hayotida, isixazm an'anasi(o'zini xudo bilan bir yo'lda deb hisoblash, qilgan gunohlari uchun tinimsiz ko'z yoshi to'kish, shu yo'l bilan “qalbini tozalash”)ga ko'ra, yaratganga tavba qilish holati kabilar bilan bog'lanadi. Deyarli dunyo dinlarining barchasida xudoga tez va to'g'ridan to'g'ri yaqinlashishning asosiy vositasi sukut deb qaraladi.

5. Jahon tilshunosligida sukut hodisasiga nutqiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida qarash amaliy tilshunoslik – lingvopersonologiyaning (XIX asrning 20-yillarida G'arbiy Yevropa hamda Rossiyada) shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Antroposentrik paradigma asosida til va nutqni “so'zlayotgan kishi” nutqi orqali “tilga xoslik”, “nutqqa daxldorlik” nuqtayi nazaridan o'rganish o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo'nalish sifatida jadal rivojlanmoqda. O'zbek amaliy tilshunosligida nutqiy muloqot va uning tarkibiy qismlari; nutqiy muloqot jarayonida verbal va noverbal birliklarning o'zaro uyg'unlashuvi masalalari tadqiqiga endi kirishildi.

6. Nutqiy muloqot jarayonida noverbal vositalar (jumladan, paralingvistik vositalar, simvollar, turli jestlar, ohang, sukut) verballikka asoslangan nutqni to'ldirish uchun ishlatiladi va, o'rni kelganda, ularni kompensatsiya qiladi. Shu yondashuvda sukut fenomeni nutqiy muloqot jarayonida ba'zan so'z bilan ifodalash noo'rin yoki imkonsiz bo'lgan so'zni, mantiq yoki fikrni (suhbatdoshga) lisoniy vositalardan ko'ra aniqroq, ta'sirchanroq va boshqa mulohazaga o'rin qoldirmaydigan darajada yetkazadi.

7. Sukutni nutqiy muloqot jarayonida o'ziga xos pragmatik qiymatga ega lingvomadaniy va lingvomilliy xususiyatlarni ifoda etuvchi vosita sifatida umumiy mazmun-mohiyatiga ko'ra ijobiy ma'noli sukut; salbiy ma'noli sukut va neytral ma'noli sukut kabi turlarga bo'lish mumkin. Zero, sukut va so'zlash o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Lingvistik belgilar biror narsaga ishora qiladi, yetishmayotgan narsani almashtiradi, lekin belgilarning o'zini ham almashtirish

mumkin.

8. Nutqiy muloqot jarayonida soʻzlar ortiqcha boʻlganda, albatta, sukut “soʻzlaydi”. Zero, sukut va ichki nutq oʻrtasidagi yaqin aloqani inkor etib boʻlmaydiki, bunda sukut fenomeni ichki va tashqi nutqning harakat birligi sifatida situativ xarakterli murakkab hodisa sifatida namoyon boʻladi. Shuningdek, toʻxtash, jim turish, indamaslik, mutlaqo gapirmaslik kabilarga sukutning gradual xususiyatga ega turlari sifatida qaralishi zarur.

9. Diskursda nutqiy vaziyat taqozosiga koʻra (masalan, aytilmoqchi boʻlgan fikr, tushuncha, soʻroq, javob, munosabat va h.larni lingvistik belgilar bilan ifodalash noqulay, nooʻrin yoki besamar boʻlganda) verballik noverballik bilan almashadi. Odatda, sukut bunday holatlarda lingvistik vositalarni kompensatsiyalovchi nol shaklli belgilar belgisiga aylanadi.

10. Nutqiy muloqotda sukut ifodalagan maʼno, muayyan axborot lisoniy belgilar orqali bevosita ifodalansa, bu kommunikativ sukutning *eksplitsit* ifodalanishi sanaladi. Agar sukut ifodalagan maʼno leksik va grammatik belgilari orqali uzual ifodalanmasa, uning oʻquvchi (tinglovchi) tomonidan mustaqil idrok etilishi koʻzda tutilsa, bu kommunikativ sukut maʼnosining *implitsit* ifodalanishi hisoblanadi. Oʻzbeklar nutqida sukut saqlashning implitsitlik holati, odatda, millatga xos qarashlar, qadriyatlar, anʼanalar bilan qorishiq tarzda maʼno ifodalaydi.

11. Nutqiy muloqot jarayonida ayol va erkaklarning, bolalar, yoshlar, oʻrta yoshlilar va keksalarning sukut saqlashi umumiy tarzda ijobiy fazilat, rozilik alomati boʻlishi ham; norozilik, isyon yoki qarshilik belgisi boʻlishi ham; neytral holat yoki hech qanday mazmun ifodalamasligi ham mumkin. Demak, nutqiy muloqot jarayonida sukut nafaqat tilning oʻziga xos belgilar tizimini kompensatsiyalaydi, balki muayyan jamiyatdagi odamlarning kommunikativ xatti-harakatlari qoidalari tizimiga daxl qiladi va insonning yosh xususiyatlari bilan ham bogʻlanadi.

12. Nutqiy muloqotdagi sukut semantikasi keng qamrovli, kontseptual asosiga koʻra xilma-xil, pragmatik hamda psixolingvistik jihatdan oʻziga xos assotsiativ maydon hosil qiladi. Pragmatik sukut fenomeniga olamning lisoniy manzarasini yoritishda, lisonning mental xususiyatlari, tushunchalarni anglashning kognitiv asoslarini tahlil qilishda, leksema semantikasidagi tarixiy lingvistik jarayonlarni izohlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi oʻzbek lingvomaʼnaviyatining ajralmas qismi sifatida qarash zarur.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ЮЛДАШЕВА ДИЛОРОМ НИГМАТОВНА**

**МОЛЧАНИЕ КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ДИСКУРСА  
(НА ОСНОВЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ)**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc)  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК**

**Бухара – 2024**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером №B2019.4DSc/Fil191 в Высшей Аттестационной комиссии

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Бухарского государственного университета [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz) и на Информационном образовательном портале –ZiyoNet ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net))

Научный консультант	Абузалова Мехринисо Кадировна доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты	Жураева Бибиш Мухсиновна доктор филологических наук (DSc), доцент Пардаев Азамат Бахронович доктор филологических наук, профессор Раупова Лайло Рахимовна доктор филологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация	Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится — 16 мая 2024 года в — 14<sup>00</sup> часов — на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 по присуждению научных степеней при Бухарском государственном университете, (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (+99865221-29-14, факс (+99865221-29-14; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под номером ). (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (+99865221-29-14).

Автореферат диссертации разослан — 2 мая 2024 года  
(Протокол реестра рассылки № 1 2 от — мая 2024 года).



Ё.С.Саидов  
И.о. председателя Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

А.Р.Ахмедов  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, доцент

А.А. Хайдаров  
И.о. председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике доказано, что выражение мышления посредством языка и их вербальное проявление являются факторами, способствующими развитию человеческой цивилизации. Изучение дискурса и его единиц, в том числе исследование темы молчания, рассматриваемых в рамках таких направлений, как прагмалингвистика, социалингвистика, психолингвистика, лингвокультурология, служат углублению понимания своеобразных аспектов речевых вопросов. Политические, экономические и культурные коммуникации являются основной в развитии государств, основу которых составляют языковые единицы речевого акта, индивидуальные для каждого народа, их изучение в дискурсе, а также сравнительное и контрастивное изучение молчания как коммуникативного акта позволяет его рассмотрение в лингвопрагматике.

В нашей стране факторы, связанные с феноменом глобализма, поставили на повестку дня серьезный подход к вопросу государственного языка. Ведь «в период нынешней глобализации естественно каждый народ, каждое независимое государство будут уделять приоритетное внимание вопросу обеспечения своих национальных интересов, и в этой связи, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, древних ценностей и чистоте родного языка»<sup>8</sup>.

Известно, что в языкознании для выражения одного события в языковой системе существует несколько единиц, и естественно, что эти единицы по некоторым признакам отличаются друг от друга. Тот факт, что такие явления, как молчания и тон, которые необходимо оценивать как компонент дискурса, до сих пор не стали объектом специального монографического исследования, определяет актуальность и необходимость выбранной темы.

Также научные результаты настоящей диссертации в определенной степени служат реализации задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-4797 «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои» от 13 мая 2016 года, № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного», от 21 октября 2019 года, № УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, Постановлении №ПП-4479 «О широком праздновании тридцатой годовщины принятия Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» от 4 октября 2019 года, Постановлений № 989 Кабинета Министров «Об утверждении положения об Департаменте по развитию государственного языка», от 12 декабря 2019 года, № 40 «О мерах по организации деятельности Терминологической комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан» от 29 января 2020 года и других нормативно-правовых документах относительно данной сферы деятельности.

<sup>8</sup> Послание Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева Олий Мажлису 22 декабря 2020 года // Народное слово, 23 декабря 2020 года. – № 258 (6952).

**Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>9</sup>.**

Научные исследования, посвященные теоретическим и практическим вопросам невербальных средств языка в лингвокогнитологии проводятся в таких ведущих научных центрах и в высших учебных заведениях мира как London University, Oxford University, (Англия), Northern Arizona University, California State University, Princeton University, Columbia University, California University, Indiana University (Америка), Göttingen Universität, Berlin Universität, Humboldt Universität, Goethe Universität (Германия), Tokio University (Япония), the University of Sorbonne (Франция), Universitat de Valencia (Испания), University of Zurich (Швейцария), Московский государственный университет, Витебский государственный университет (Беларусь); Харьковский государственный педагогический университет (Украина), Bakı Dövlət universiteti (Азербайджан), а также в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Бухарском государственном университете, Институте узбекского языка, литературы и фольклора АН Республики Узбекистан (Узбекистан).

В мировой лингвистике возникновение необходимости использования невербальных средств в процессе устной речи, их связь с экстралингвистическими факторами, противопоставление или взаимодействие вербальных и невербальных средств в реализации прагматической цели, лингво-поэтические возможности молчания, участие молчания в создании художественных приемов, использование молчания в дискурсе. В результате исследования уровня творчества, художественно-эстетического, концептуального характера были получены следующие научные результаты:

Обосновано, что молчания является универсальным явлением и движущей силой процесса дискурса, результатом, способным заменить любую вербальную единицу в обеспечении общения между собеседниками, явление тишины изучено философски (Cambridge University (Англия); University of Zurich (Швейцария)); в процессе речевого общения изучаются значения, выражающие молчание и значение тишины, и их прагматические,

---

<sup>9</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации был осуществлён на основе источников [www.lingvolive.com/ru](http://www.lingvolive.com/ru), [www.dictionary.com](http://www.dictionary.com), [www.merriam-webster.com](http://www.merriam-webster.com), <http://elibrary.udsu.ru>, [www.dissertat.com](http://www.dissertat.com), <https://cheloveknauka.com>, [core.ac.uk](http://core.ac.uk), [www.prlib.ru](http://www.prlib.ru), [www.science.org](http://www.science.org), [www.healthline.com](http://www.healthline.com), [www.sciencedaily.com](http://www.sciencedaily.com), [www.pnas.org](http://www.pnas.org), [www.scientificamerican.com](http://www.scientificamerican.com), [www.languageguide.org](http://www.languageguide.org), [www.urbandictionary.com](http://www.urbandictionary.com) Дата обращения: 30.10. 2023. и других источников.

художественно-эстетические особенности (University of Pennsylvania, University of California (США); Boston University, New York University (США); Universitat de Valencia (Испания); освещается, что в речевом общении молчание всегда находится на уровне языкового постоянства, что существуют определенные способы выражения мысли через молчание (Seoul National University (Корея); Sophia University (Япония); обоснованы динамичность и адаптивность тишины в речевой системе по обеспечению удовлетворения потребностей человека, психофизиологические особенности, лингвокультурные, познавательные аспекты использования тишины вместо речевых единиц в процессе речевого общения (University of Tokyo (Япония), Australian National University (Австралия), Oxford University Language Centre (Англия); обоснованы теоретические и практические вопросы соотношения речевых явлений, семантического прогресса с явлением молчания, соответственно выделяется в связи с возникновением и развитием теории информации как положительной характеристики текста (Уральский государственный педагогический университет, Волгоградский социально-педагогический университет, Витебский государственный университет, Беларусь; Московский государственный университет, Институт лингвистических исследований, РФ); анализируются тропы возникающие на основе молчания, синтаксические фигуры (Харьковский государственный педагогический университет, Украина; Бакинский государственный университет, Азербайджан; Казахский национальный университет, Казахстан); исследованы отношение молчания к литературному языку и речи, роль молчания в речевом общении, прагматические, стилистические, отчасти лингвопоэтические особенности, изучены такие вопросы, как возникновение семантико-синтаксического несоответствия явления молчания в предложении (Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН РУ, Ферганский государственный университет, Бухарский государственный университет).

В мировой лингвистике проводится ряд исследований возникновения молчания, в том числе по следующим направлениям: определение факторов, вызывающих молчание в речевом общении; раскрыть прагматические и лингвопоэтические особенности молчания на примере произведений отдельных авторов; исследование соотношения формы и значения в речевых событиях, происходящих на фоне молчания; исследования проводятся по таким приоритетным направлениям, как изучение особенностей и художественно-эстетических функций феномена молчания, возникающего во всех формах дискурса.

